


BELGELERLE

TÜRKİYE ÖZBEKİSTAN İLİŞKİLERİ

O'ZBEKISTON TURKIYA ALOQALARI

HUJJATLARDA





TÜRKİYE CUMHURİYETİ
CUMHURBAŞKANLIĞI
DEVLET ARŞİVLERİ BAŞKANLIĞI





Yayın No: 17



BELGELERLE TÜRKİYE-ÖZBEKİSTAN İLİŞKİLERİ

O'ZBEKISTON-TURKIYA ALOQALARI HUJJATLARDA

İstanbul 2022

TÜRKİYE CUMHURİYETİ CUMHURBAŞKANLIĞI
DEVLET ARŞİVLERİ BAŞKANLIĞI
TURKIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT ARXIVLARI BOSH BOSHQARMASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZARXIV” AGENTLIGI
ÖZBEKİSTAN CUMHURİYETİ
ÖZARŞİV AJANSI

Proje Yöneticisi / Loyiha rahbari

Prof. Dr. Uğur ÜNAL
Devlet Arşivleri Başkanı
Davlat arxivlari bosh boshqarmasi direktori

Ulug‘bek Mirtalibovich YUSUPOV
"O‘zarxiv" Agentligi direktori
Özarşiv Ajansı Başkanı

Proje Sorumluları / Loyiha mas'ullari

Doç. Dr. Muhammet Ahmet TOKDEMİR
Devlet Arşivleri Başkan Yardımcısı
Davlat arxivlari bosh boshqarmasi direktori

Cevat EKİCİ
Dış İlişkiler ve Tanıtım Dairesi Başkanı
Xalqaro aloqalar va targibot boshqarmasi boshligi

Ahmet ÖZKILINÇ
Yayın Hizmetleri Şube Müdürü
Nashr ishlari bo’yicha sho’ba mudiri

Dilbar Tahirovna ZAKIROVA
O‘zbekiston Milliy arxivi direktori
Özbekistan Milli Arşivi Direktörü

Anvarjon Orifjonovich ALIYEV
"O‘zarxiv" Agentligi axborot xizmati rahbari va direktorining axborot siyosati masalalari bo`yicha maslahatchisi
Özarşiv Ajansı Bilgi Hizmetleri Müdürü ve
Bilgilendirme Politikası Konularında Başkan Danışmanı

Nasriddin Muxritdinovich MIRZAYEV
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi katta ilmiy xodimi
Özbekistan İslam Medeniyeti Merkezi Baş Araştırmacısı

Yayına Hazırlayanlar / Nashrga tayyorlovchilar

Numan YEKELER
Yılmaz KARACA
Mehmet Selim TEMEL
Mesut DEMİR
Kemal GURULKAN
Ali COŞKUN

Nasriddin MIRZAYEV, PhD
Muhayo ISAKOVA, DSc
Mavjuda MIRZAYEVA
Shohida DAVUROVA
Mavluda SHORAHBAROVA
Shahnoza ABDURAHIMOVA
Zulfiya XASANOVA
Muzaffarkhon JONIEV, PhD

Grafik Tasarım / Grafik dizayn
Nazlı GENÇ GÜLTEKİN - Vahdettin ATİK

Tercüme / Tarjimon
Muzaffarkhon JONIEV, PhD

Fotoğraf Çekimi / Rasmga oluvchi
Ali UZUN

Kapak: Buhara Hanı elçisinin ve bir Avrupalı elçinin Reisülküttap ile görüşmesi ve arka planda Kadızade-i Rumî'nin Semerkand'da bulunan mezarı

Baskı / Bosma
Printa Matbaacılık
Emek Mahallesi Ordu Caddesi No: 24N4 Sancaktepe - İstanbul
Tel: 0216 290 06 30 www.printamatbaa.com / Sertifika No: 50678

ISBN: 978-625-8459-05-0

Sertifika / Guvohnoma No: 42220

Bu kitapta 90 g Ivory kâğıt kullanılmıştır. / Bu kitobda 90 g Ivory qog’oz ishlatildi.
Bu kitap Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı Devlet Arşivleri Başkanlığı
ile Özbekistan Cumhuriyeti "Özarşiv" Ajansı ortak yayınıdır.
Bu kitob Turkiya Respublikasi Davlat Arxivlari Bosh Boshqarmasi va
O‘zbekiston Respublikasi "O‘zarxiv" Agentligining qo‘shma nashridir.



İstanbul, Topkapı Sarayı / To'pqopi saroyi, Istanbul
Gaspare Trajanao Fossati, Aya Sofia Constantinople, as Recently Restored by Order of H. M. the Sultan Abdul Medjid, from the Original Drawings by Chevalier Gaspard Fossati, Lithographed by Lewis Haghe Esq., London 1852.



Semerkant'ta Tillekari Medresesi'nin Kubbesi / Samarqanddagi Tillakori madrasasi gumbazi



Sunuş / Taqdim

Devletler de insanlar gibi doğar, büyür ve ölürler. Devamlı ve asıl olan ise milletlerdir. İstikbalin daha sağlam temeller üzerine inşa edilebilmesi için, bu tarihî hakikat daima göz önünde bulundurulmalıdır. Nitekim çok eski çağlara uzanan tarihi boyunca pek çok devletler kurmuş olan mensubu bulunduğumuz Türk milleti de, o devletler yıkılsa da, sahip olduğu devlet geleneğine dayanarak yeni devletler kurup tarihteki yolculuğunu sürdürmüştür.

Bu büyük milletin ana yurdu olan ve bugünkü Özbekistan Cumhuriyeti'nin bulunduğu bölgeyi de içine alan geniş Türkistan coğrafyası, bereketli topraklara ve uçsuz bucaksız bozkırlara sahiptir. Türkistan, tarım ve hayvancılık imkânları ve buradan geçen tarihî İpek Yolu'nun bahşettiği ticari potansiyelden dolayı, tarih boyunca pek çok kavim ve milletin ilgisini çekmiştir. Yeni ticaret yollarının keşfi, Asya ticaretinin İpek Yolu ile batıya açılan kapısı hükmündeki bu coğrafyayı iktisadi olarak olumsuz yönde etkilemiştir. Ardından yaşanan istikrarsızlık dönemiyle birlikte bölge zayıf düşerek, küresel planda büyük oyunların oynandığı bir yer hâline dönüşmüştür.

Kadim medeniyetimizin temelleri de bu coğrafyada atılmıştır. Biruni̇, Mirza Uluğ Bey, İbn Sînâ, Hârizmî, Ali

Davlatlar insonlar kabi tug'iladi, ulg'ayadi va o'ladi. Davomli va asl bo'lgani esa millatlardir. Kelajakning yana mustahkam poydevor ustida insho etish uchun bu tarixiy haqiqatni har doim hisobga olmoq lozim. Shu jumladan, uzoq o'tmishlarga borib taqaladigan tarixi davomida ko'pgina davlatlar barpo etgan biz mansub bo'lgan Turk millati ham u davlatlar yiqilsa-da, o'z davlat an'analariga asoslanib yangi davlatlar qurib tarixdagi yo'lini davom ettirgan.

Bu buyuk xalqning vatani bo'lgan va bugungi O'zbekiston Respublikasi joylashgan hududni o'z ichiga olgan bepoyon Turkiston mintaqasi, unumdor yerlar va cheksiz dashtlarga ega. Turkiston dehqonchilik va chorvachilik imkoniyatlari va bu yerdan o'tib ketadigan tarixiy Ipak yo'lining savdo salohiyati tufayli tarix davomida ko'plab qabilalar va xalqlarning e'tiborini tortdi. Yangi savdo yo'llarining kashf qilinishi Osiyo savdosining Ipak yo'li bilan g'arbga ochilgan darvozasi bo'lgan ushbu mintaqaga iqtisodiy jihatdan salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Keyingi beqarorlik davrida mintaqa zaiflashdi va global miqyosda katta siyosiy o'yinlar maydoniga aylangan edi.

Qadimgi madaniyatimizning tamaduni ham shu mintaqada qo'yilgan. Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino, Xorazmiy, Ali Qushchi, Imom Buxoriy, Imom Motirudiy, Imom Termiziy,

Kuşçu, İmam Buharî, İmam Mâtürîdî, İmam Tirmizî, Bahâeddin Nakşibend, Hoca Ahmed Yesevî gibi pek çok âlim ve önder Türkistan'da yetişmiştir. Bölgeden yayılan ilim ve irfan ışığından sadece İslam dünyası değil, bütün insanlık istifade etmiştir. Türkiye Cumhuriyeti'nin üzerinde kurulu bulunduğu Anadolu'yu yurt edinmek için mücadele eden, Horasan Erenleri ismiyle adlandırılan ve Anadolu'nun manevi önderleri olan irfan erleri de, yine Türkistan'dan yola çıkmıştır.

Birbirleriyle bu denli güçlü tarihî bağları olan Anadolu ve Türkistan coğrafyaları arasındaki münasebetlerin nasıl bir tarihî seyir izlediği, hep merak edilen ve araştırılıp öğrenilmesine büyük ehemmiyet verilen konular arasında yer almıştır. Bu, her vatandaşımız gibi bizim de hassasiyetle takip ettiğimiz bir husustur. Anadolu'da kurulan ve bir dönem Hilafet makamını da deruhte eden Osmanlı Devleti'nin Türkistan coğrafyası ile kurduğu tarihî münasebetlere dair belgelerin incelenmesini, bu bakımdan önemli görüyoruz. Aynı millet ve medeniyet havzasının evlatları olarak, tarihî münasebetlerimizi, gerçekleşen ya da devrin ve coğrafyanın şartları sebebi ile gerçekleşemeyen hayalleri incelemek istikbalimiz için bize yol gösterici olacaktır.

Türkiye olarak her bakımdan ilişkilerimizi geliştirmek istediğimiz Özbekistan'ın Cumhurbaşkanı kıymetli dostumuz Sayın Şevket Mirziyoyev'in 2017 yılında ülkemize gerçekleştirdiği ziyaret esnasında, Türkiye-Özbekistan münasebetlerine dair her iki ülke arşivlerinden derlenen belgelerin yer aldığı bir çalışma yapılmasına dair ortak bir arzu izhar etmiştik. Bu kitapla, ortak arzumuzun gerçekleştiğini görmekten son derece memnuniyet duyuyorum. İnşallah bundan sonra da ülkelerimiz arasında yapılacak bu tür çalışmalarla tarihî, kültürel ve beşerî ortak mirasımıza uygun şekilde Türkiye-Özbekistan kardeşliğini perçinleyeceğiz.

Bu vesile ile çalışmanın gerçekleştirilmesi için aynı heyecan ve iradeyi bizimle paylaşan Sayın Mirziyoyev'e bir kez daha teşekkürlerimi sunuyor, eserin hazırlanmasındaki çalışmalarından ve gayretlerinden dolayı her iki ülke arşiv idarelerini tebrik ediyorum.

Recep Tayyip ERDOĞAN

Türkiye Cumhurbaşkanı

Bahouddin Naqshbandiy, Xoʻja Ahmad Yassaviy kabi koʻplab olim va yetakchilar Turkistondan yetishib chiqqan. Nafaqat Islom olami, balki butun insoniyat mintaqadan chiqqan ilm va hikmat nuridan bahramand boʻldi. Turk Respublikasi joylashgan Onadoʻlini ona yurt qilish uchun kurash olib borgan Xuroson eranlari deb nomlangan Onadoʻlining ruhiy rahnamolari ham Turkistondan yoʻlga otlanishgan edi.

Bir-biri bilan shunchalik kuchli tarixiy bogʻlarga ega boʻlgan Onadoʻli va Turkiston mintaqalari oʻrtasidagi munosabatlarning tarixiy oʻzgarishlari har doim diqqat markazida boʻlgan va tadqiq etilib oʻrganilishiga katta eʼtibor qaratilgan mavzular qatorida boʻlgan. Bu masalani, barcha fuqarolarimiz kabi biz ham alohida eʼtibor bilan kuzatib boramiz. Shu nuqtai nazardan, biz Onadoʻlida vujudga kelgan va ayni paytda bir muddat Xalifalik maqomida boʻlgan Usmoniylar davlatining Turkiston oʻrtasidagi tarixiy munosabatlar toʻgʻrisidagi hujjatlarning oʻrganilishini muhim deb hisoblaymiz. Bir millat va sivilizatsiya havzasining avlodi oʻlaroq tarixiy munosabatlarimizni, davr va mintaqaviy sharoitlari tufayli amalga oshgan yoki oshmagan orzularimizni oʻrganish bizga kelajak uchun oʻziga xos yoʻl koʻrsatgich vazifasini bajaradi.

Turkiya Respublikasi oʻlaroq koʻp tomonlama munosabatlarimizni yanada rivojlantirishni istaganimiz Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qadrli doʻstimiz Janob Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda mamlakatimizga qilgan tashrifi chogʻida Turkiya-Oʻzbekiston munosabatlariga doir har ikki davlat arxivlaridan saralangan hujjatlar asosida bir tadqiqot qilinishiga doir mushtarak bir istagimizni bildirgan edik. Ushbu kitob orqali men mazkur mushtarak istagimizning roʻyobga chiqqanidan juda xursandman. Xudo xohlasa, kela-jakda mamlakatlarimiz oʻrtasida olib boriladigan bunday tadqiqot ishlari orqali umumtarixiy, madaniy va insoniy merosi-mizga muvofiq Turkiya va Oʻzbekistonning birodarligi-ni mustahkamlaymiz.

Fursatdan foydalanib, ishni amalga oshirish uchun ayni bir xil ishtiyoq va istakni biz bilan baham koʻrgan janob Mirziyoyevga yana bir bor minnatdorchilik bildiraman va asarning tayyorlanishida mehnati singan har ikki mamlakat arxiv maʼmuriyatlarini qilgan saʼy-harakatlari uchun muborak-bod etaman.

Rejep Tayyip ERDOG'AN

Turkiya Respublikasi Prezidenti



Qutlov / Tebrik

O‘zbek Turk xalqlarining ildizi bir, ma’naviyati mushtarak. Tarix sinovlarida toblangan bu ikki xalqni uyg‘un qadriyat va an’analar, mustahkam hamkorlik rishtalari chambarchas bog‘lab turadi.

Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Alisher Navoiy, Qozizoda Rumiy kabi buyuk bobokalonlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi asrlar davomida xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro qardoshlik aloqalari va do‘stona munosabatlarimiz yuksalishida beqiyos ahamiyat kasb etgan.

Milliy uyg‘onish harakatining birinchi saflarida bo‘lgan yuzlab ma’rifatparvar bobolarimizning istiqlol, ilm-fan va taraqqiyot yo‘lida olib borgan mislsiz faoliyatida, ularning yurtimizda zamon talablariga mos islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatgan ulkan jonbozliklarida Turkiyada nashr qilingan ilmiy, siyosiy, adabiy-ma’rifiy nashrlarning ta’siri katta bo‘lgan. Shu davrda Buxoro jadidlaridan Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Munzim, Hamidxo‘ja Mehriy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev kabi ko‘plab ma’rifatparvar vatandoshlarimiz Turkiyada tahsil olganini ham ta’kidlash joiz.

Butun dunyoda ulkan siyosiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatga ega bo‘lgan mamlakat sifatida tanilgan Turkiya Respublikasi O‘zbekiston tashqi siyosatida alohida ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Turkiya O‘zbekiston

Özbek ve Türk milletinin kökü bir, maneviyatı ortaktır. Eski dostluk, kardeşlik ve biraderlik ilişkileri her iki milleti birbirine bağlamaktadır. Bu iki halk da Türkçe konuşur; dinleri bir, örf ve âdetleri birbirine çok yakındır. İmam Buharî, Birunî, Hârizmî, İbn-i Sînâ, Celaleddin-i Rumî, Yunus Emre, Ali Şir Nevâî, Kadızade Rumî gibi atalarımızın mirası iki ülkenin gelişiminde büyük önem arz etmektedir.

Özbekistan Cumhuriyeti'nin dış ilişkilerinde Türkiye Cumhuriyeti ayrı bir yere sahiptir. Zira Türkiye dünyadaki 200'ü aşkın ülke içinde Özbekistan Devleti'nin bağımsızlığını ilk tanıyan ve yeni bir devlet olarak dünya haritasındaki yerini kabul etme sürecini başlatan ülkedir.

Tarihten biliyoruz ki 1918 yılı sonlarında Türkiye'deki egemenlik mücadelesine Türk halklarının ulu evladı Mustafa Kemal Paşa önderlik etmiş ve 1920-1923 yıllarında onun kurduğu Ankara Hükûmeti sömürgecileri ana vatan toprağından kovmuştur. İki ülke arasındaki işbirliği ilişkilerinin bu yıllarda da mevcut olduğu tarihî belgelere de yansımaktadır.

XX. yüzyılın başlarında Türkiye'deki Genç Türkler ve Genç Buharalı Cedidciler arasında dostluk ilişkileri kurularak maarif ve kültür alanlarında iş birliği yapılmıştır. Buharalı Cedidciler, o yıllarda Türkiye'de yayımlanmakta olan *Sırat-ı Müstakim (Doğru Yol)* dergisini sürekli okuyup oradaki

mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan, shu tariqa Vatanimizning dunyo xaritasida yangi davlat sifatidagi e’tirofini boshlab bergan edi.

Bugun xalqlarimiz o‘rtasidagi qadimiy qardoshlik, o‘zaro do‘stlik va hamkorlik aloqalari tarixida mutlaqo yangi sahifa ochilib, ular yangicha ma’no-mazmun bilan boyib borayotgani ayniqsa e’tiborlidir. Bu borada Turkiya Respublikasi Prezidenti birodarimiz Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi oliylarining ulkan hissasi borligini alohida ta’kidlashni istardim.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Olim va tadqiqotchilarimiz ikki davlatning o‘ziga xos va mushtarak tarixi, madaniyati, urf-odat va an’analari, qadimiy va serqirra adabiyoti haqida ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Jumladan, bugun dunyo yuzini ko‘rayotgan “*O‘zbekiston – Turkiya aloqalari hujjatlarda*” nomli kitob-albom ham nafaqat ikki davlatning tarixiy munosabatlarini yoritib berishga, balki qardosh xalqlarning azaliy do‘stligini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Arxivlarni tom ma’noda madaniy va tarixiy ma’lumotlar xazinasi deb atash mumkin. Arxiv ishining rivojlanish darajasi milliy tarix va o‘zlikni anglash jarayoniga ham ta’sir qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat hayotining joni va ruhi bo‘lgan ma’naviyatni shakllantirishga beqiyos hissa qo‘shadi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zarxiv” agentligi hamda Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari bosh boshqarmasi hamkorligida tayyorlangan ushbu kitob-albom ko‘p ming yillik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan turkiy xalqlar davlatchilik tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘ladi. U istiqboldagi yangi ilmiy yondashuv va tadqiqotlarga zamin bo‘lishi bilan birga, yosh avlod ongi va tafakkurini yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishonchim komilki, kelgusida ham O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasida bu boradagi keng ko‘lamli hamkorlik yanada rivojlanadi.

So‘zimning yakunida, O‘zbekiston va Turkiya arxivlarida saqlanayotgan noyob manbalarni aniqlash va mazkur kitobni tayyorlashda ishtirok etgan zahmatkash va fidoiy mualliflar jamoasiga o‘zimning samimiy minnatdorligimni bildirib, ikki davlat xalqini ushbu nashr bilan muborakbod etaman.

Shavkat MIRZIYOYEV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

yazılarda ele alınan konuları toplumun geniş bir kesimine yaymışlardır. Büyük yazar Sadreddin Ayni (1878-1954) söz konusu dergiyi okuyarak "parlamento" kavramından ne anladığını yorumlamıştır. Uzun süre Avrupa ülkeleri ve Türkiye'de kalan Buhara kökenli Abdürreşid İbrahim, ulusal, kültürel ve siyasi egemenlik konusunu Cedidcilik hareketinde ilk defa ele almıştır. 1908-1910 yıllarında Buharalı Cedidciler arasından Abdürraûf Fıtrat, Abdulvahid Munzim, Hamidhoca Mihri, Osmanhoca Polathocayevler Türkiye'de eğitim almışlardır. Eğitim sırasında A. Fıtrat, şiirlerinin topluca yer aldığı *"Sayha"* isimli kitabını, *"Münazara"* ve *"Hintli Seyyahın Beyanı"* gibi felsefi eserleri kaleme almıştır. Onun *"Muhtasar-ı Tarih-i İslam" (İslam'ın Kısa Tarihi)* kitabı da bu ülkede yayına hazırlanmıştır. A. Fıtrat'ın eserlerinin ana fikri, Türkistan'ı esaretten kurtarmak ve Avrupa'daki gibi ekonomik ıslahatlar yapmaya yönelikti.

Günümüzde iki ülke arasındaki ilişkiler bakımından yeni bir sayfa açılmaktadır. Özellikle arşiv alanında imzalanan belgeler ve varılan anlaşmalar sonucu hazırlanmış olan yayınların, ülkelerimiz arasındaki tarihî ilişkileri yansıtmakla kalmayıp, bu iki kardeş milletin dostluk bağlarını daha da güçlendirmeye hizmet edeceğinde kuşku yoktur.

Tarihimizin aynası olan arşivler, uygarlığın bir özelliği olarak ortaya çıkmıştır. Arşivler, kültürel ve tarihî bilgilerin koruyucusudur. Bu alanın gelişme düzeyi, tarihsel bilgilerin kavranma sürecini etkiler. Bu da toplum şuurunun gelişmesini sağlar ve toplum hayatının canı ve ruhu olan maneviyatın oluşmasına katkıda bulunur.

Tarihte defalarca farklı nedenlerle devlet hazinesindeki değerli eşyalar yağmalanmış olsa da zaman içerisinde, kaybedilen bu maddi varlıkların yeri doldurulmuş ve restore edilmiştir. Ancak, yüzyılların tarihini bünyesinde barındıran ve paha biçilmez olarak kabul edilen arşiv belgelerini bu varlıklar arasına dâhil edemeyiz.

Özbekistan Cumhuriyeti "Özarşiv" Ajansı ve Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığına bağlı Devlet Arşivleri Başkanlığı iş birliğiyle hazırlanan bu kitap, bin yıllık tarihî gelişimden geçmiş Türk halklarının devlet tarihlerinin incelenmesinde belgeye dayalı yeni bilimsel yaklaşımlar ve sonuçlar ortaya çıkarmanın yanı sıra maneviyatımızı yükseltme açısından da büyük önem taşıyacaktır. İleride, yeni Özbekistan koşullarında arşivlerimiz arasındaki iş birliğinin modern kalkınmanın gereklerine uygun olarak daha da gelişeceğinden eminim.

Bu vesile ile Türkiye ve Özbekistan arşivlerindeki eşsiz belgelerin tespitinde ve bu kitabın yayına hazırlanmasında emeği geçen yazar ekibine şükranlarımı sunar, her iki ülke insanlarını bu yayından dolayı tebrik ederim.

Şevket MİRZİYOYEV

Özbekistan Cumhuriyeti Cumhurbaşkanı



Önsöz / Kirish So'zi

Kurumumuz daha önce Polonya ve Macaristan cumhuriyetleri arşiv idareleri ile iki ayrı uluslararası ortak yayın yapmıştır. Şimdi de aynı şekilde üçüncü ortak yayınımızı Özbekistan Cumhuriyeti arşiv idaresi "Özarşiv" ile gerçekleştirmiş bulunmaktayız.

Türk millet ve devletleri ailesinin mühim bir üyesi olan Özbekistan Cumhuriyeti; ana hatlarıyla Orta Asya'da İran, Afganistan, Çin, Mançurya, Moğolistan, Güney Sibirya, Ural Dağları, Volga Nehri ve Hazar Denizi ile çevrili geniş Türkistan coğrafyasının Maveraünnehir bölgesinde ve bu bölgenin güneydoğu ucundaki Fergana Vadisi'nde yer almaktadır. Maveraünnehir ismi, Ceyhun (Amuderya) nehrine izafeten "nehrin ötesi, arkası" anlamına gelmekte ve bu nehrin öte tarafında bulunan bölgeyi veya bu nehir ile Seyhun (Siriderya) nehri arasında kalan bölgeyi ifade etmek için kullanılmaktadır.

Türkistan bölgesi ilk çağlardan beri konumundan dolayı, özellikle de Çin'den başlayan ve bölgesel ve uluslararası ticaret bakımından büyük ehemmiyete sahip bulunan İpek Yolu'nun batıya açılan kapısı mesabesinde olması sebebiyle daima önemli, bu önemi yüzünden de Çin, Sasani vs. devletlerin egemen olmaya çalıştıkları ve ilgilendikleri bir bölge olmuştur. Bu yolun mevcudiyeti bölgenin gelişmesine büyük katkı sağlamış ancak Emir Timur'dan sonraki dönemde bölgede birlik ve güvenliğin sağlanamamasından doğan istikrarsızlık ve özellikle de Coğrafi Keşifler sonucunda yeni ticaret yollarının bulunması üzerine İpek Yolu'nun önemini kaybetmesi gibi amillerden dolayı bölge siyasi ve ekonomik bir gerileme içine girmiştir. Sanayi Devrimi ile birlikte ortaya çıkan ham madde ve yeni pazarlar bulma ihtiyacı emperyalist emellere sahip devletlerin sömürgeler edinmek amacıyla buralara tekrar yönelmelerine sebep olmuştur.

Bizning muassasa ilgari Rossiya, Polsha va Vengriya Respublikalari arxiv ma'muriyatlari bilan uchta alohida xalqaro qo'shma kitoblarni nashr etgan. Xuddi shu kabi, biz O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi bilan ham uchinchi qo'shma nashrni chiqardik.

O'zbekiston Respublikasi – turkiy xalqlar va davlatlari oilasining muhim a'zosi; U O'rta Osiyoda Eron, Afg'oniston, Xitoy, Manjuriya, Mo'g'uliston, Janubiy Sibir, Ural tog'lari, Volga daryosi va Kaspiy dengizi bilan o'ralgan ulkan Turkiston geografiyasining Movarounnahr hududida va bu mintaqaning janubiy sharqiy chekkasidagi Farg'ona vodiysida joylashgan. Movarunnahr nomi "daryoning narigi tomoni" degan ma'noni anglatadi, u Jayhun (Amudaryo) daryosiga ishora qiladi va bu daryoning narigi tarafidagi mintaqani yoki bu daryo bilan Sayhun (Sirdaryo) daryosi orasidagi hududni ifodalash uchun ishlatiladi.

Turkiston mintaqasi ilk davrlardan buyon joylashuvi jihatidan, Xitoydan boshlangan va mintaqaviy hamda xalqaro tijorat nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega Buyuk Ipak yo'lining g'arbga ochilgan darvozasi vazifasini bajarganligi sababli har doim muhim. Shu jihatdan ushbu hudud doimo Xitoy, Sosoniylar va boshqa mamlakatlarning hukmron bo'lishga harakat qilgan va manfaatdor bo'lishga uringan mintaqa bo'lgan. Bu yo'lning mavjudligi mintaqaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, lekin Amir Temurdan keyin mintaqada birlik va xavfsizlikning yo'qligi natijasida paydo bo'lgan beqarorlik va ayniqsa yangi geografik kashfiyotlar natijasida Ipak yo'lining iqtisodiy va siyosiy jihatdan ahamiyatining yo'qolishiga olib keldi. Sanoat inqilobi bilan vujudga kelgan xom ashyo va yangi bozorlarni topish zarurati, imperialistik ambitsiyalarga ega bo'lgan davlatlarni mustamlakalarga ega bo'lish uchun bu joylarga e'tibor qaratishga majbur qildi. Xun, Oqxun, Ko'kturk va Uyg'ur kabi turkiy davlatlari tashkil etilgan Turkistonda, islom

Hun, Akhun, Göktürk, Uygur gibi Türk devletlerinin kurulduğu Türkistan'da İslamiyetten sonra Emevî ve Abbasî hâkimiyeti başlamış; Türklerin İslamı kabul etmeleriyle birlikte burada Türk-İslam medeniyetinin temelleri atılmıştır. XI. yüzyılın başlarında Selçuklular'ın kurulmasından sonra bölgedeki Türklerin önemli bir bölümü Ön Asya ve Anadolu'ya göç etmiş ve böylece bu medeniyet o bölgelere de taşınmıştır. XIII. yüzyıl başlarındaki Moğol istilası bölgenin yeniden şekillenmesine sebep olmuş ve Türkistan, sınırları Çin'den Avrupa'ya kadar uzanan Moğol İmparatorluğu'nun hâkimiyeti altına girmiştir. İmparatorluğun parçalanmasından sonra, Türklerin yoğun olarak yaşadıkları Deşt-i Kıpçak bölgesinde Altın Orda Hanlığı, Maveraünnehir ve Doğu Türkistan topraklarında da Çağatay Hanlığı kurulmuştur.

Altın Orda Devleti'nin zayıflayıp dağılma sürecine girmesinden sonra bu devletin toprakları üzerinde Kırım, Kasım, Kazan, Sibir, Nogay, Astarhan gibi hanlıklar kurulurken, Çağatay Hanlığı'nın yıkılma sürecinde de Türkistan coğrafyasında önce Emir Timur tarafından 1370 yılında Timurlu Devleti kurulmuş; bu devletin yıkılmasından sonra burada da, Deşt-i Kıpçak bölgesinde olduğu gibi Buhara, Hîve (Harezm) ve Hokand (Fergana) hanlıkları teşekkül etmiştir.

Bunlardan Buhara Hanlığı, Ebülhayr Han'ın torunu ve Şeybanîler hanedanının müessisi olan Şeybanî Muhammed Han tarafından 1500'de kurulmuştur. Hanedana Özbekler veya Ebülhayrîler de denilmektedir. Hanlık 1599 yılından itibaren Şeybanîlerin akrabası olan ve Astarhan'ın Ruslar tarafından işgal edilmesi üzerine Buhara'ya sığınmış bulunan Canoğulları (Astarhanlılar) hanedanı, 1785 yılından itibaren de Canoğulları ile akrabalık bağı tesis etmiş olan Mangıt hanedanı tarafından yönetilmiştir. Mangıt hanları Türk-Moğol geleneğindeki han unvanı yerine İslamî gelenekteki emir unvanını kullanmayı tercih etmişlerdir. Hîve Hanlığı ise Şeybanî Muhammed Han'ın 1510 yılında Safevî hükümdarı Şah İsmail'e yenilip hayatını kaybetmesi ve hâkimiyeti altındaki Harezm bölgesinin Safevî kontrolüne geçmesinden sonra 1511'de bu bölgeyi ele geçiren ve Şeybanîler ile akraba olan Yadigâr Han'ın torunlarından İlbars Han ve Balbars Han tarafından 1512'de kurulmuştur. Bu hanedana Yadigâr Han'a nisbetle Yadigâroğulları veya Yadigârîler denildiği gibi soylarının dayandığı Cuci Han oğlu Şeyban Han'ın ahfadından Arabşah bin Pulad'a izafeten Arabşâhîler de denilmektedir. Hanedanın hükümranlığı Safevî Hükümdarı Nadir Şah'ın ülkeyi işgal ettiği 1740 yılına kadar devam etmiş; işgalden sonra ise ülke başka hanlar tarafından idare edilmiştir. Hokand (Fergana) Hanlığı da yine Özbekler'in Ming kabilesine mensup Şahruh tarafından 1710'da kurulmuştur. XVI. yüzyıldan itibaren dört asır varlıklarını sürdüren bu hanlıklardan dolayı Türkistan

dini kirib kelgach, Ummaviylar va Abbosiylar hukmronligi boshladi; Turkiy xalqlarning islomni qabul qilishi bilan bu hududda Turk-Islom sivilizatsiyasining asoslari qo‘yildi. XI asr boshlarida Saljuqiylar davlati tashkil etilganidan so‘ng, mintaqadagi turkiylarning katta qismi Kichik Osiyo va Onado‘liga ko‘chib kelgan va shu tariqa bu sivilizatsiya o‘sha hududlarga ham ko‘chib o‘tdi.

XIII asrning boshlarida mo‘g‘ullarning bosqini mintaqaning qayta shakllanishiga olib keldi va Turkiston chegaralari Xitoydan Yevropagacha cho‘zilgan hudud Mo‘g‘ullar imperiyasi tasarrufiga o‘tdi. Imperiya parchalanib ketganidan so‘ng, Turkiylar keng tarqalgan Dashti Qipchoq hududida Oltin O‘rda xonligi, Movarounnahr va Sharqiy Turkiston yerlarida Chig‘atoy xonligi tuzildi. Oltin O‘rda davlati zaiflashib, parchalanish jarayoniga kirgandan so‘ng, bu davlat hududida Qrim, Qosim, Qozon, Sibir, Nog‘ay, Astraxan kabi xonliklar tuzildi. Chig‘atoy xonligi qulagach dastlab uning o‘rnida 1370-yilda Temuriylar davlati qurildi; Bu davlat qulagandan so‘ng, Dashti Qipchoq mintaqasida bo‘lgani kabi Buxoro amirligi, Xiva (Xorazm) va Qo‘qon (Farg‘ona) xonliklari tashkil etildi.

Ulardan Buxoro amirligiga 1500-yilda Abulxayrxonning nabirasi va Shayboniylar sulolasining asoschisi Shayboniy Muhammadxon tomonidan asos solingan. Sulolani o‘zbeklar yoki Abulxayriylar deb ham atashadi. Amirlikni 1599 yildan e’tiboran Shayboniylarning qarindoshlari bo‘lgan va Astraxan ruslar tomonidan bosib olinganidan keyin Buxorodan boshpana topgan Joniylar (Ashtarxoniylar) sulolasi va 1785 yildan Joniylar bilan qarindoshlik aloqalarini o‘rnatgan Mang‘itlar sulolasi boshqargan. Mang‘it hukmdorlari turk mo‘g‘ul urf-odatlarida xon unvoniga emas, balki islom an’analarida amir unvonidan foydalanishni afzal ko‘rganlar. Xiva xonligi 1510-yilda Muhammad Shayboniyxon Safaviylar hukmdori Shox Ismoil tomonidan mag‘lubiyatga uchrab, vafotidan keyin 1511-yilda Shayboniyxon bilan qarindosh bo‘lgan Yodgorxonning o‘g‘illari Elbars va Bolbarsxonlar tomonidan 1512-yilda tashkil etilgan. Ushbu sulola Yodgorxonga nisbatan Yodgoriylar yoki Jo‘jining o‘g‘li Shaybonxonning naslidan bo‘lgan Arabshoh ibn Po‘latga nisbatan Arabshohiylar ham deyiladi. Ushbu sulolaning hukmronligi Safaviylar hukmdori Nodirshoh tomonidan 1740-yilga qadar davom etgan, ishg‘oldan keyin mintaqa boshqa xonlar tomonidan idora etilgan. Qo‘qon (Farg‘ona) xonligi ham 1710-yilda o‘zbeklarning Ming qabilasidan bo‘lgan Shahruh tomonidan tashkil etilgan. XVI asrdan buyon to‘rt asr hukmronlik qilgan ushbu sulolalar davri Turkiston tarixida xonliklar davri yoki uch o‘zbek xonligi davri sifatida tarixda qolgan. Bugungi kunda mustaqil Turkiston respublikalaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston asosan Buxoro amirligi hududida, qisman Xiva va Qo‘qon xonliklari hududida joylashgan.

Bu jihatdan o‘zbeklarning siyosiy tarixi Buxoro amirligi va boshqa xonliklarning siyosiy tarixi bilan bevosita bog‘liq.

tarihinin bu dönemi Hanlıklar veya Üç Özbek Hanlığı olarak bilinmektedir.

Bugün bağımsız olarak varlıklarını devam ettiren Türkistan Cumhuriyetlerinden biri olan Özbekistan, ağırlıklı olarak Buhara Hanlığı'nın kısmen de Hîve ve Hokand hanlıklarının toprakları üzerinde kurulu bulunmaktadır. Bu bakımdan Özbeklerin siyasi tarihi, Buhara ve diğer hanlıkların siyasi tarihi ile doğrudan ilgilidir.

Buhara, Hîve ve Hokand hanlıklarının siyasi tarihlerinde, kendi içlerinde yaptıkları ve hanlıklar arasında cereyan eden mücadeleler ile Safevîler, Ruslar ve Çinlilere karşı yaptıkları savaşlar önemli bir yer tutmaktadır. Bu durum Türkistan coğrafyasında birlik sağlanamamasına, hanlıklarda iktidarın sık sık el değiştirmesine ve buna bağlı olarak bölgesel istikrarsızlıklar yaşanarak hanlıkların düşman saldırılarına açık hâle gelmesine sebep olmuştur. Nitekim 1865'te Hokand Hanlığı, 1868'de Buhara Hanlığı, 1873'te de Hîve Hanlığı Ruslar tarafından işgal edilmiştir.

Bu hanlıklar, Türkistan'dan Anadolu'ya göç eden Türkler tarafından kurulmuş olan Osmanlı Devleti ile daima iyi ilişkiler içerisinde olmuşlardır. Zira İran'da Buhara Hanlığı ile eşzamanlı olarak kurulan Safevî Devleti'nin, resmî mezhep ilan ettiği Şiîliği, sınırdaş olduğu Sünnî Osmanlı Devleti ve Özbek hanlıklarına karşı siyasi bir araç olarak kullanması hanlıklarda ve Osmanlı'da ortak tehdit algısı oluşturarak aralarında tabii ve mecburi bir dayanışma ve iş birliği ihtiyacı doğmasına ve kurulan iyi ilişkilerin zamanla gelişip bir siyasi ittifaka dönüşmesine yol açmıştır.

Öte yandan 1552 yılında Kazan Hanlığı'nı işgal eden Rusların 1556'da da Astarhan Hanlığı'nı ele geçirerek Türkistan Müslümanlarının Hazar Denizi'nin kuzeyinden İstanbul ile kurdukları münasebetleri kesmeleri ve hac için Mekke’ye gitmelerini tamamen imkânsız hale getirmeleri bu ihtiyacı daha da şiddetlenmiştir. Nitekim bir kısım Osmanlı arşiv belgelerinden, Halifeliği deruhte etmesinden dolayı İslam dünyasına karşı sorumluluğu artmış bulunan Osmanlı Devleti'nin Astarhan'ı geri almak için ortaya koyduğu niyet ve teşebbüslerin hayata geçirilemediği veya sonuçsuz kaldığı anlaşılmaktadır.

Osmanlı Devleti bu hanlıklardan en eskisi ve büyüğü olarak başlangıçta hep Buhara Hanlığı'nı muhatap almış, diğer hanlıkların birbirlerine karşı üstünlük elde etme amacı taşıyan taleplerine ise mesafeli durmuştur. Ancak hanlıkların hac ibadeti için yol güvenliği, Rusya'ya karşı askerî yardım, ordu ve silah modernizasyonu gibi taleplerini de mümkün olduğunca karşılamaya çalışmıştır. Rusya gibi dış tehditlere karşı aralarındaki problemleri hallederek birlikte hareket etmeleri tavsiyesinde bulunmuştur. Buhara Hanlığı'ndan ayrılmak suretiyle kurulan Hokand Hanlığı'na karşı da

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining siyosiy tarixida o‘zaro va xonliklar o‘rtasida olib borgan kurashlari bilan Safaviylar, ruslar va xitoylarga qarshi olib borgan urushlari muhim o‘rin tutadi. Bu holat Turkiston mintaqasida birlikning yo‘qligi, xonliklarda hokimiyatning tez-tez almashib turishi va oqibatda mintaqaviy beqarorlik tufayli xonliklarni dushman hujumlariga ochiq qilib qo‘ydi. Natijada 1865-yilda Toshkent shahri, 1868-yilda Samarqand shahri, 1873 yil Xiva xonligi va 1875 yilda Qo'qon xonligi ruslar tomonidan bosib olingan.

Bu xonliklar Turkistondan Onado‘liga ko‘chgan turkiylar tomonidan asos solingan Usmoniylar imperiyasi bilan doimo yaxshi munosabatda bo‘lgan. Chunki Eronda Buxoro amirligi bilan bir vaqtda tuzilgan Safaviylar davlatining rasmiy mazhab deb shialikni e’lon qilishi u bilan chegaradosh bo‘lgan Sunniy Usmoniylar davlatiga va O‘zbek xonliklariga qarshi siyosiy vosita sifatida ishlatishi, Xonliklar va Usmoniylar imperiyasida umumiy tahdid sifatida qaralib, ular orasida o‘zaro tabiiy va majburiy birdamlikni yaratdi. O‘zaro hamkorlik ehtiyojining tug‘ilishi bilan tuzilgan yaxshi munosabatlar siyosiy ittifoqqa aylandi.

Boshqa tomondan, 1552 yilda Qozon xonligini ishg‘ol qilgan ruslarning 1556 yilda Astraxan xonligini egallab olishlari, Kaspiy dengizi shimolidan Istanbul bilan Turkiston musulmonlari o‘rtasidagi aloqalarni uzib qo‘ydi hamda turkiston musulmonlarining haj ibodatini ado etish uchun Makkaga borishlarini butunlay imkonsiz qilishi o‘zaro hamkorlik ehtiyojini yanada kuchaytirdi. Aslini olganda, ba’zi Usmoniylar arxiv hujjatlaridan, Xalifalikni qo‘lga kiritganligi sababli Islom olami oldidagi mas’uliyatni kuchaytirgan Usmoniylar davlatining Astraxanni qaytarib olish maqsadida qilgan niyatlari va urinishlari amalga oshmagani hamda natija bermagani ma’lum bo‘ladi.

Usmoniylar davlati dastlab mazkur xonliklarning eng qadimiysi va buyugi bo‘lgan Buxoro amirligi bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan, boshqa xonliklarning esa bir-biridan ustunlikka urunish kayfiyatidagi talablariga imkon qadar masofali munosabatda bo‘lgan. Biroq, u xonliklarning haj uchun yo‘llar xavfsizligi, Rossiyaga qarshi harbiy yordam, armiya va qurollarni modernizatsiya qilish kabi talablarini iloji boricha qondirishga harakat qilgan. Ularga Rossiya kabi tashqi tahdidlarga qarshi muammolarini hal qilib, birgalikda harakat qilishni maslahat bergan. Buxoro amirligi alohida ajralib tashkil etilgan Qo‘qon xonligiga qarshi dastlab Turkiston birligini buzilishi sababli imkon qadar uzoq munosabat ko‘rsatilgan, lekin keyinchalik bu yondashuv ijobiy tomonga o‘zgargan. Turkiston Rossiya ishg‘oli ostiga tushgan davrda, asirlikka tushmaslik uchun Usmoniylar davlatida boshpana topgan mintaqa aholisi ham turli hududlarga joylashtirilgan.

Istanbuldagi o‘zbek takyalari, Turkistondan kelgan elchi va boshqalarning qo‘nim topgan, odamlar kelib turadigan,

Türkistan'ın birliğini bozacağı endişesiyle başlangıçta mesafeli bir tutum sergilenmiş ancak bu yaklaşım daha sonra olumlu yönde değişmiştir. Türkistan'ın Rus işgali altına girdiği dönemde esarete düşmemek için Osmanlı ülkesine sığınan bölge insanları da çeşitli bölgelerde iskân edilmiştir.

İstanbul'daki Özbek tekkeleri, Türkistan'dan gelen elçi vs. insanların gelip konduğu, muhtaçlara yardım edilen ve âdeta bir diplomatik irtibat merkezi gibi çalışan mekânlar olmuştur. Tekkelerin çoğunlukla o coğrafyadan gelmiş şahıslardan olan şeyh unvanlı idarecileri de Osmanlı-Özbek ilişkilerinde diplomatik görevler üstlenmişlerdir. Ayrıca Türk İstiklal Savaşı'nda işgal altındaki İstanbul'dan Anadolu'daki mücadeleye katılmak isteyen gönüllülerin ve mücadele için gerekli askerî mühimmatın sevkinde Üsküdar'daki Özbekler Tekkesi'nin ifa ettiği büyük hizmetlerin Türk millî hafızasında daima hürmetle yâd edileceğini ifade etmek vefa ve kadirşinaslığın bir gereğidir.

Türk-İslam kültür ve medeniyetinin gelişiminde, ilmî ve kültürel yönden sağlamış olduğu katkılarla önemli merkezlerden biri olarak karşımıza çıkan Maveraünnehir, Harezm ve Fergana bölgeleri, başta Buhara ve Semerkant gibi şehirler olmak üzere çeşitli devirlerde kurulan medrese, kütüphane ve rasathaneleriyle dinî, fennî ve tabii ilimler alanında merkez olmuştur. Maveraünnehir şehirleri İslam dünyasında ilim ve eğitim alanında ekol kabul edilmiştir. Birunî, Mirza Uluğ Bey, İbn-i Sînâ, Hârizmî, Ali Kuşçu gibi ilim erbabı, İmam Buharî, İmam Tirmizî, İmam Mâtürîdî gibi din bilginleri ve Yusuf Hemedanî ve müridi Ahmed Yesevî ile Bahaeddin Nakşibend gibi tasavvuf önderleri başta olmak üzere pek çok âlim ve din adamı bu bölgede yetişmiştir. Moğol istilası döneminde yaşanan tahribat sonucu yaşanan kısmi gerileme, Cengiz Han'ın İslamı kabul eden torunları döneminde hızla telafi edilmiş; Emir Timur döneminde Türkistan coğrafyası ilim alanında parlak bir devir yaşamıştır.

Elinizdeki bu kitapta Türkiye Cumhuriyeti ve Özbekistan Cumhuriyeti arşivlerinden seçilmiş 113 adet belge neşredilmiştir. Belgelerde: Türkistan bölgesinden gelen hacıların ve tacirlerin yol güvenliği, bunlara haksız uygulamalar yapılmaması ve bu yüzden uğradıkları mağduriyetlerin giderilmesi, ihtiyaçlarının karşılanması, hac yolculuğuna çıkmış olan Enuşe Han'a misafirperverlik gösterilmesi, İran'da hapsedilen hacıların kurtarılması, Ejderhan (Astarhan) seferi; Türkistan'dan gelen elçilerin kabulü, hanlardan getirdikleri ve onlara götürecekleri hediyeler, yol güvenlikleri, kendileri ve beraberlerindekilerin kürk vs. ile taltifleri, ihtiyaçları ve yol masrafları için verilecek paralar, vefat eden elçi ve maiyyetinin memleketine nakli, protokolle ilgili bazı hususlar; hanlar ve Türkistan Müslümanları arasında cereyan eden anlaşmazlıkların

muhtojlarga yordam beriladigan, o‘ziga xos bir diplomatik muassasalar kabi ishlaydigan maskan bo‘lgan. Takyalarda asosan o‘sha mintaqadan bo‘lgan Shayx unvoniga ega boshqaruvchilar, Usmoniy-O‘zbek munosabatlarida ham diplomatik vazifalarni o‘z zimmalariga olishgan. Bundan tashqari, Turkiya Mustaqillik kurashi paytida bosib olingan Istanbuldan Onado‘liagi kurashga qo‘shilishni xohlagan ko‘ngillilarni yuborishda hamda jang uchun zarur bo‘lgan harbiy o‘q-dorilarni yuborishda, Uskudardagi O‘zbek takyalari tomonidan amalga oshirilgan ulkan xizmatlar, har doim turk milliy xotirasida hurmat bilan esda qolishini ifoda etish vafo va qardoshlik burchimizdir.

Turk-Islom madaniyati va sivilizatsiyasini rivojlantirishda muhim markazlardan biri sifatida ajralib turadigan Movarounnahr, Xorazm va Farg‘ona viloyatlari, dastlab Buxoro va Samarqand shaharlarida turli davrlarda qurilgan madrasa, kutubxona va rasadxonalar diniy va dunyoviy ilmlar markaziga aylandi. Movarounnahr shaharlari islom dunyosida ilm-fan va ta’lim sohasidagi maktablar sifatida qabul qilingan. Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Sino, Xorazmiy, Ali Qushchi kabi olimlar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi diniy ulamolar va Yusuf Hamadoniy hamda uning shogirdi Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy kabi tasavvuf olimlari ushbu hududda yetishib chiqdi. Mo‘g‘ul bosqini davrida vayronagarchilik natijasida yuzaga kelgan qisman orqaga qaytish davri Chingizxon avlodlari Islomni qabul qilgan davrda tezda qoplandi. Amir Temur davrida Turkiston mintaqasi ilm-fan sohasida yorqin davrni boshidan kechirdi.

Qo‘lingizdagi ushbu kitobda Turkiya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi arxivlaridan tanlab olingan 113 ta hujjat chop etilgan. Hujjatlarda: Turkistondan kelayotgan haj ziyoratchilari va savdogarlarning yo‘llardagi xavfsizligi, ularga nisbatan adolatsiz muomala, qiyinchiliklarga barham berish, ehtiyojlarini qondirish, hajga borgan Anushaxonning mehmondo‘stligi, Eronda zindonband qilingan hojilarni qutqarish, Astraxan yurishi; Turkistondan kelgan elchilarni qabul qilish, xonlardan olib kelingan hamda olib boriladigan sovg‘a-salomlar, yo‘l xavfsizligi, elchilar va hamrohlarining mo‘yna va boshqa hadyalari, ehtiyojlari va yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pullar, vafot etgan elchi va uning hamrohlarini o‘z yurtiga ko‘chirish, davlat protokoli bilan bog‘liq ba’zi masalalar; Turkiston xonlari va musulmonlari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish, harbiylar va boshqa masalalarda hamkorlik va yordam istashlari, g‘alabalar e’loni va taxtga chiqish munosabati bilan tabriklar; Usmoniylar mamlakatida qolgan asli turkistonliklarning bir qismini mukofotlanishi, pul berilishi, yordam ko‘rsatilishi, sulola a’zosining Enderunda ish bilan ta’minlanishi, pasport berilishi Usmoniylar mamlakatiga boshpana topganlarni joylashtirish va ularning ehtiyojlarining qondirilishi; Madinadagi o‘zbek madrasasiga mudarris tayinlanishi,

giderilmesi, askerî vs. konularda iş birliği ve yardım talepleri, zafer ilanı ve cülus tebriki; Türkistan ahalisinden olup Osmanlı ülkesinde kalmakta olan bazı kimselerin taltifi, maaş bağlanması, yardım yapılması, bir hanedan mensubunun Enderun'da istihdamı, pasaport verilmesi, Osmanlı ülkesine iltica ve hicret edenlerin iskânı ve ihtiyaçlarının karşılanması; Medine'deki Özbek Medresesi'ne müderris tayini, Özbekler Dergâhı; Türkistan hakkındaki bazı malumata dair Osmanlı dış temsilciliklerinin yazıları, bazı Batı ülkelerinin tavassut istekleri; Rus işgali döneminde savaş esiri Türk subaylarının sevki, uluslararası ticaret ve diğer bazı idari uygulamalar; Türkistan matbuatında 1877 Osmanlı-Rus Savaşı, Birinci Dünya Savaşı sırasında Ağa Han'ın Rusya ve İngiltere lehinde yayımladığı bildirinin propaganda için Türkistan ahalisine ilanı; Osmanlı askerî tesisleri ve Hicaz Demiryolu için Türkistan'dan yapılan yardımlar; Türkistan'dan ipek ve pamuk tohumları ithali; Türkiye Cumhuriyeti'nin Sosyalist Türkmenistan ve Özbekistan cumhuriyetlerini tanıması gibi konular ile genel olarak bölgenin kültürel ve siyasi tarihine ilişkin birtakım konular yer almaktadır. Ayrıca bu belgeler arasında, Özbekistan'ın mühim simalarından olup bir dönem Osmanlı ülkesinde ikamet etmiş olan Taşkent hanzadesi Muhammed Pehlevî Efendi'nin kendisi ve memuriyeti hakkındaki bazı belgeler de bulunmaktadır.

Belgeler, hem Türkiye Türkçesine hem de Özbek Türkçesine tercüme edilebilmesi için çeviri yazı olarak değil, sadeleştirme şeklinde günümüz Türkçesine aktarılmış; kısa özetleri ve miladi tarihleri belgenin başına konulmuştur. Çalışmanın daha verimli kullanılabilmesi için eserin sonuna analitik bir indeks de eklenmiştir. Ayrıca kitabın "pdf" formatındaki dijital dosyası ile kitapta yayımlanan belgelerin görüntüleri bir DVD içerisinde kitapla birlikte verilmiştir.

Osmanlı-Özbek ilişkilerinde her iki coğrafyanın temel dinamikleri çerçevesinde meydana gelen yakınlaşma araya giren uzun yıllara rağmen bugün Türkiye ve Özbekistan cumhuriyetlerinin ortaya koydukları irade çerçevesinde yeniden geliştirilmeye başlanmıştır. Bu iradenin bir göstergesi olan ve Türkiye Cumhuriyeti ile Özbekistan Cumhuriyeti arşivlerinden seçilen belgelerden oluşan eserin, istikbalimize ışık tutmasını ve gelişmekte olan ilişkilerimize katkı sağlamasını temenni ederim.

Kitabın hazırlanmasında emeği geçen Özbekistan Arşiv İdaresi ve Başkanlığımız personelini tebrik eder, çalışmanın ilgililere faydalı olmasını dilerim.

Prof. Dr. Uğur ÜNAL

Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı

Devlet Arşivleri Başkanı

Oʻzbeklar dargohi; Turkiston haqidagi baʼzi maʼlumotlar boʻyicha Usmoniylar xorijiy elchixonalarining qaydlari, baʼzi Gʻarb davlatlarining vositachilik haqidagi soʻrovlari; Rossiya istilosi vaqtida turk harbiy asirlarini joʻnatish, xalqaro savdo va boshqa maʼmuriy amaliyotlar; 1877-yildagi Usmoniy-Rossiya urushi va Birinchi jahon urushi paytida Ogʻaxonning Rossiya va Angliya foydasiga yozgan maqolasini eʼlon qilinishi hamda Turkiston matbuotida targʻib qilish uchun Turkiston xalqiga eʼlon qilinishi; Turkistondan Usmoniy harbiy inshootlari va Hijoz temir yoʻli uchun yordam; Turkistondan ipak va paxta chigitining importi; Turkiya Respublikasining Turkmaniston va Oʻzbekiston Sotsialistik Respublikalarini tan olishi, umuman mintaqaning madaniy va siyosiy tarixi bilan bogʻliq baʼzi masalalarni oʻz ichiga olgan. Qolaversa, bu hujjatlar orasida, Oʻzbekistonning muhim siymolaridan biri boʻlgan va bir muddat Usmoniylar davlatida yashagan Toshkent xonzodalaridan Muhammad Pahlaviy Afandi haqida oʻzi va uning maʼmuriyati haqida baʼzi hujjatlar bor. Hujjatlar tushunarli boʻlishi uchun va tarjimasini osonlashtirish uchun transkriptsiya sifatida emas, soddalashtirilgan shaklda bugungi turk va oʻzbek tillariga oʻtkazildi. Turk va oʻzbek tillariga qilingan tarjimalar Oʻzbekiston arxivlari materiallari asosida qilingan. Hujjatning boshida ularning qisqacha xulosalari va milodiy sanalari koʻrsatilgan. Hujjat tasvirlari ostidagi maʼlumotnomaning boshida, har ikki davlat arxividan olingan hujjatlarni farqlash uchun har ikki mamlakatning TR va UZ ramziy belgilari ishlatilgan. Ishdan unumli foydalanish uchun ish oxiriga tahliliy indeks qoʻshildi. Bundan tashqari, kitobning "pdf" formatidagi raqamli fayli va kitobda chop etilgan hujjatlarning tasvirlari kitobga DVD formatida kiritilgan.

Oradan uzoq yillar oʻtganiga qaramay, har ikki mintaqaning asosiy dinamikasi doirasida sodir boʻlgan Usmoniy-Oʻzbek munosabatlarining yaqinlashuvi, Turkiya va Oʻzbekiston respublikalarining irodasi doirasida qayta rivojlana boshladi. Umid qilamanki, bu irodaning yaqqol ifodasi boʻlgan hamda Turkiya Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasi arxivlaridan tanlangan hujjatlardan tashkil topgan bu asar bizning kelajagimizni yanada oydinlatadi va rivojlanayotgan munosabatlarimizga hissa qoʻshadi.

Kitobni tayyorlashda oʻz hissasini qoʻshgan Oʻzbekiston “Oʻzarxiv” agentligi va Bosh boshqarmamiz xodimlarini tabriklayman hamda bu tadqiqotdan isteʼfoda etuvchilar uchun foydali boʻladi deb umid qilaman.

Prof. Dr. Ugʻur UNAL

Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat arxivlari bosh boshqarmasi direktori



Kanuni Sultan Süleyman'ın Tuğrası / Sulton Sulaymon Qonuniyning tug'rosi
Polonya Arşivi AGAD, PL_1_3_34-66-19-41_0001



Kirish So‘zi / Önsöz

Tarixdan ma’lumki, O‘zbek va Turk xalqlarini azaliy do‘stlik, birodarlik va qardoshlik rishtalari bog‘lab turadi. Har ikki xalqning madaniyati, dini va urf-odatlari bir-biriga juda yaqin. Bu esa O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning chuqur tarixiy va madaniy ildizlarga ega ekanligidan dalolat berib, mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Qolaversa, madaniy va tarixiy jihatdan bu ikki mamlakat turkiy xalqlar tamadduni rivojida markaziy o‘rin tutgan.

Tarixiy manbalarda qadim-qadimda Oltoy tog‘lari etaklarida istiqomat qilgan ko‘chmanchi qabilalar xitoylar tomonidan «tukuye» lar deb atalib, keyinchalik «kuchli, baquvvat» degan ma’noni anglatuvchi turk-yut (turklar) so‘ziga aylangan. Oltoy tog‘ etaklarida turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar ham yashab, Tukuyelar ular bilan aralashib ketgan. Shu tariqa mazkur tilda so‘zlashuvchi barcha xalqlar turklar, deb nomlana boshlagan.

Turkiya Respublikasi deganda, O‘zbekiston Respublikasi aholisining aksariyati mazkur davlatni Istanbul, Anqara, Antaliya kabi mashhur shaharlari, betakror tarixiy obidalari, turizm salohiyati, yuqori sifatli to‘qimachilik mahsulotlari, taniqli san’atkorlari, ommabop film va seriallari orqali yaxshi biladi. 2019-yili O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi tashkilotiga to‘laqonli a’zo sifatida qo‘shilishi, nafaqat turkiy olamda birodarlik ruhining mustahkamlanishiga, balki Anqara va Toshkent o‘rtasida yangi muntazam hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishidan dalolat beradi. Jumladan, ilk bor ikki davlat arxiv muassasalarining hamkorligi natijasida do‘stona aloqalar tarixini aks ettiruvchi mazkur ilmiy-izohli noyob arxiv hujjatlari to‘plamini nashr etilishi, nafaqat yurtdoshlarimiz, balki jahon hamjamiyatiga boy o‘tmishimiz bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi.

Tarihen bilmekteyiz ki, Özbek ve Türk halkları çok eski zamanlardan beri birbirlerine dostluk, kardeşlik ve biraderlik bağlarıyla bağlıdırlar. Her iki milletin kültürü, dini, örf ve âdetleri birbirine çok yakındır. Bu durum Özbekistan ile Türkiye arasındaki ilişkilerin derin tarihî ve kültürel kökleri olduğunu ve sağlam bir temel oluşturduğunu göstermektedir. Ayrıca kültürel ve tarihsel olarak iki ülke Türk medeniyetinin gelişmesinde merkezî bir rol oynamıştır.

Tarihî kaynaklara göre, kadim zamanlarda Altay Dağları'nın eteklerinde yaşamış olan göçmen kabilelere Çinliler tarafından "tüküye"ler deniliyordu. Bu kelime daha sonra "güçlü, kuvvetli" anlamına gelen "türk-yüt" (Türkler) kelimesine dönüşmüştür. Altay Dağı'nın eteklerinde yaşayan ve Türkçe konuşan kabilelerin Tüküyeler ile karışması neticesinde bu dilde konuşan tüm halklar Türkler olarak adlandırılmıştır.

Özbekistan vatandaşlarının çoğu Türkiye'yi İstanbul, Ankara, Antalya gibi tanınmış şehirleri, eşsiz tarihî yapıları, turizm kapasitesi, çok kaliteli tekstil ürünleri, meşhur sanatçıları, toplumsal film ve dizileriyle tanımaktadırlar. Özbekistan'ın 2019 yılında Türk Dili Konuşan Ülkeler İşbirliği Konseyine tam üye olarak katılması, sadece Türk dünyasındaki kardeşlik ruhunun güçlenmesine değil, aynı zamanda Ankara ile Taşkent arasında yeni bir düzenli iş birliğinin kurulmasına vesile olmuştur. Bilhassa iki ülkenin arşiv kurumları arasındaki iş birliğinin bir sonucu olan ve dostluk ilişkilerinin tarihini ilk kez yansıtan bu eşsiz ilmî arşiv belgeleri koleksiyonunun yayımlanması, sadece bizim milletimize değil, belki dünya toplumlarına da zengin tarihimizle yakinen tanışma fırsatını vermiştir.

2021-yilning oktabrida Turkiyaning "Hurriyat" nashri muxbiri bilan suhbatda turk professori Nejati Demir: "Qadimgi arab va fors manbalarida Alp Er To'nganing qabri Buxoroda ekani e'lon qilindi. Xabar turk dunyosi tomonidan xursandchilik bilan qarshi olindi. Negaki, Alp Er To'nga turkiy xalqlarning bobokaloni, ilk davlatchilikka asos solgan bahodir jangchi va yo'lboshchisi bo'lgan. Ayrim olimlar Alp Er To'nga shunchaki afsonaviy qahramon, hayotda yashab o'tmagan degan fikrda bo'lib, buni tarixiy manbalarda u haqdagi ma'lumotlar bir-biriga zid ekanini ta'kidlagan. Alp Er To'nga qabrining topilgani uning tarixda chindan ham yashab o'tganiga rad etib bo'lmas dalil hisoblanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Alp Er To'nga VII asrda yashab o'tgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Alp Er To'nga adolatli hukmdor hamda qo'rqmas jangchi sifatida tilga olingan. U tarqoq sak qabilalarini birlashtirib, eroniy shohlarga qarshi kurash olib borgan hamda Turkiston, Eron va Ozarboyjonning ma'lum qismini o'z ichiga olgan Turon davlatiga asos solgan. O'zbekistonlik professor Qahramon Rajabovning yozishicha, turkiy manbalarda u Alp Er To'nga va To'nga Alp Er, forsiy manbalarda Afrosiyob nomi bilan tilga olingan. Samarqand shahrining shimolida joylashgan va XIII asr boshida mo'g'ullar bosqinidan so'ng vayron etilgan Afrosiyob xarobalari Alp Er To'nga asos solgan davlat qoldiqlaridir.

Sharq mamlakatlarining ikkinchi renessans davri sifatida tarixga muhrlangan Amir Temir va Temuriylar davrida gullab-yashnagan ilm-fan va madaniyat nafaqat turk dunyosi, balki butun Ovro'paga o'z ta'sirini ko'rsatganini inkor etib bo'lmaydi. Ma'lumki, o'sha davrda Ovro'pada Sharq fani va madaniyatiga qiziqish juda katta bo'lib, Ovro'pa Sharqning ilmiy yutuqlarini chanqoqlik bilan o'ziga singdirayotgan edi. 1453-yili Usmonli turklar Istanbulni fath etganidan so'ng biroz o'tmay bu shahar Sharq va G'arb madaniyatlarining uchrashuv joyi bo'lib qoldi. Istanbulga Italiya, Germaniya, Avstriya va Gollandiyadan rassomlar, muhandislar, harbiy mutaxassislardan tashqari astronomiya va matematika mutaxassislari ham to'plangan edi. Xususan, Germaniyadan hisobdon «kossistlar» kelgan edi. Birinchi bo'lib Samarqand olimlarining yutuqlaridan ana o'shalar bahramand bo'ldilar. Shu tariqa Ulug'bek va uning «Zij»i haqidagi xabarlar milodiy XV asr oxiridayoq Ovro'paga yetdi. Bunda to'liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchining xizmati kattadir.

1472-yil bahoridan boshlab Usmonli sulton Abul Fotih Sultan Muhammad II ning taklifiga ko'ra, «O'z davrining Batlimusi» deb tanilgan Ali Qushchi kundalik 200 aqcha moyana bilan Ayya Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof

Türk Profesör Necati Demir, Türkiye'de çıkan *Hürriyet* gazetesine Ekim 2021'de verdiği röportajda, Alp Er Tunga'nın mezarının eski Arap ve Fars kaynaklarına göre Buhara'da olduğunu söylemiştir. Bu haber Türk dünyasında memnuniyetle karşılanmıştır. Zira Alp Er Tunga, Türk halklarının atası, ilk devleti kuran cesur ve savaşçı bir liderdi. Bazı bilim adamları, tarihsel çelişkileri öne sürerek, Alp Er Tunga'nın hiç yaşamamış efsanevi bir kahraman olduğuna inansa da Alp Er Tunga'nın mezarının bulunması onun gerçekten tarihte yaşadığının tartışılmaz bir kanıtıdır.

Tarihî kaynaklara göre Alp Er Tunga VII. yüzyılda yaşamıştır. Kaşgarlı Mahmud'un *"Divan-ı Lügati't-Türk"* ve Yusuf Has Hacib'in *"Kutadgu Bilig"* adlı eserlerinde Alp Er Tunga adil bir hükümdar ve korkusuz bir savaşçı olarak anlatılmaktadır. O, dağılmış Sek kabilelerini bir araya getirip İranlı padişahlara karşı mücadele vermiş ve Türkistan, İran ve Azerbaycan'ın belli bir kısmını içine alan Turan Devleti'ni kurmuştur. Özbekistanlı Profesör Kahraman Recebov'un yazdıklarına göre o, Türkçe kaynaklarda Alp Er Tunga ve Tunga Alp Er, Farsça kaynaklarda ise Afrasiyab adıyla geçmektedir. Semerkand şehrinin kuzeyinde bulunan ve XIII. yüzyılın başlarında vuku bulan Moğol saldırıları neticesinde tahrip edilmiş olan Afrasiyab harabeleri Alp Er Tunga'nın kurduğu devletin kalıntılarıdır.

"Doğu'nun İkinci Rönesansı" olarak tarihe geçen Emir Timur ve Timurlular Dönemi'nde gelişen bilim ve kültürün sadece Türk dünyasını değil, tüm Avrupa'yı da etkilediği inkâr edilemez. O zamanlar Avrupa'da Doğu bilimine ve kültürüne büyük bir ilgi olduğu ve Avrupa'nın Doğu'nun bilimsel başarılarını hevesle özümsediği bilinmektedir.

1453 yılında Osmanlılar İstanbul'u fethettikten sonra çok geçmeden bu şehir Doğu ve Batı kültürünün buluştuğu yere dönüşmüştür. İtalya, Almanya, Avusturya ve Hollanda'dan ressamlar, mühendisler, askerî uzmanların yanı sıra gökbilimi ve matematik uzmanları İstanbul'da toplanmıştır. Mesela, Almanya'dan hesapçı "kossistler" gelmiş ve Semerkandlı bilim insanlarının bilimsel başarılarından ilk yararlananlar onlar olmuştur. Böylece Uluğ Bey ve onun "Zic"i hakkındaki haberler daha miladi XV. yüzyılın sonunda Avrupa'ya ulaşmıştır. Bunda tam adıyla Alaeddin Ali bin Muhammed el-Kuşçu'nun hizmetleri büyüktür.

1472 yılının ilkbaharında Ebu'l-feth Sultan İkinci Mehmed'in teklifi üzerine "Döneminin Batlamyusu" olarak bilinen Ali Kuşçu günlük 200 akçe ücret ile Ayasofya Medresesi'ne başmüderris olarak tayin edilmiştir. Günümüz Türk tarihçilerine göre; "İstanbul'a Ali Kuşçu gelene dek astronomide onun derecesinde ilim sahibi yetkin bir âlim mevcut değildi." İstanbul'a Ali Kuşçu'nun gelmesiyle birlikte

etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar «ilmi hay'atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo'lmagan edi». Istanbulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo'lga qo'yildi va pirovard natijada Miram Chalabiy va boshqa atoqli olimlarni tarbiyaladi. Ali Qushchi hijriy 878-sana, milodiy 1474-yil 17-dekabrda Istanbulda vafot etadi. U Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan.

O'zbekiston va Turkiya davlat arxivlari tomonidan hamkorlikda tayyorlangan hujjatlar to'plamida Mirzo Ulug'bek davriga oid qiziqarli hujjatlar ham joy olgan. Ularning biri, Turk sultoni Muhammad II ning Iroq sultoni Azim ustidan g'alaba (fath) qilgani munosabati bilan 1473-yili Istanbulda yozilgan va astronomiyaga bag'ishlangan «Risola al-fathiya» («G'alaba risolasi»)ni turk tiliga tarjima qilish bo'yicha podshoh farmonidir. Arxiv hujjatida 1830-yilda Usmonli armiyasi uchun to'pchi va harbiy istehkomlar quruvchilarni tayyorlovchi harbiy maktabi o'quv jarayonida darslik sifatida qo'llash uchun mazkur asar turk tiliga tarjima qilinadi. Asar ushbu maktabning bosh ustozi Sayid Ali Bey tomonidan "Mir'oti Olam" (Olamning oynasi) nomi bilan tarjima qilinib, nashrga tayyorlanganligi bayon etilgan.

Bugungi kunda ushbu asarning qo'lyozmalari Mashhadda Imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayya Sofiya kutubxonasida, Tehron universiteti kutubxonasida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Berlindagi Germaniya davlat kutubxonasida, Dehlidagi Hindiston universiteti kutubxonasida va Bombey kabi jahonning mashhur kutubxonalarida saqlanadi.

Bundan tashqari, mazkur arxiv hujjatlari to'plamiga O'zbek xonliklarining (Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligi) Usmoniylar saltanati bilan savdo-diplomatik, ma'naviy va ma'rifiy-madaniy aloqalari tarixiga oid 113 ta hujjat kiritilgan. Ularda Turkiston musulmonlarini Usmoniylar davlati orqali haj safariga borishi, olgan yordamlari borasida noyob ma'lumotlar mujassamlashgan. Shuningdek, birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng Turkistonga olib kelingan turk harbiy ofitserlari va ularning hayotlariga oid manbalar ham kiritilgan.

XX asr boshlarida Sharq dunyosida avj olgan milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlarda O'zbek va Turk ma'rifatparvar jadid ziyolilarining ham o'rni beqiyos. Jadidlar o'lkada yangi usul maktablarini ochish va ularning tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni rivojlangan davlatlarga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr jamoasini tuzish hamda gazeta va jurnallar chop etish yo'li bilan xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish orqali Vatan istiqloliga erishishni ko'zlagan. Eng avvalo, yangicha fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash maqsadida xorijdagi nufuzli ta'lim

bu ülkede kısa süre içerisinde gökbilimi çalışmaları başlamış ve ardından da Mîrim (Mirem) Çelebi ve diğer tanınmış bilim insanları onun tarafından yetiştirilmiştir. Ali Kuşçu 17 Aralık 1474 tarihinde İstanbul'da vefat etmiş ve Eyüp Sultan Mezarlığı'na defnedilmiştir.

Özbekistan ve Türkiye devlet arşiv idareleri arasındaki iş birliği çerçevesinde hazırlanan bu belgeler derlemesinde Mirza Uluğ Bey devrine ait ilginç belgeler de yer almaktadır. Bunlardan biri, 1473 yılında İstanbul'da yazılıp Türk Sultanı İkinci Mehmed'e, Irak Sultanı Azim'e karşı kazandığı zafer münasebetiyle ithaf edilen gökbilimi ile ilgili *"Risale el-Fethiyye" (Galebe Risalesi)* kitabının Türkçeye yapılan tercümesi ile ilgilidir. Söz konusu belgeye göre bu kitap, 1830'da Osmanlı ordusu için topçu ve askerî istihkâmcıları yetiştiren askerî okulların eğitim-öğretim sürecinde ders kitabı olarak kullanılmak üzere bu okulun başüstadı Seyit Ali Bey tarafından *"Mir'ât-ı Alem" (Âlemin Aynası)* adıyla Türkçeye çevrilmiş ve Padişah tarafından da basılması emredilmiştir.

Günümüzde sözünü ettiğimiz eserin el yazmaları Meşhed'de İmam Rıza Kütüphanesinde, İstanbul'da Ayasofya Kütüphanesinde, Tahran Üniveristesi Kütüphanesinde, Cambridge Üniversitesi Kütüphanesinde, Britanya Müzesinde, Berlin'deki Almanya Devlet Kütüphanesinde, Delhi'deki Hindistan Üniversitesi Kütüphanesinde ve Bombay gibi dünyanın ünlü kütüphanelerinde bulunmaktadır.

Ayrıca söz konusu arşiv belgeleri derlemesi Özbek Hanlıklarının (Hokand ve Hive hanlıkları ile Buhara Emirliği) Osmanlı Devleti ile olan ticari, dinî, manevi, ilmî ve kültürel ilişkileriyle ilgili 113 belgeyi içermektedir. Bu belgelerde Türkistan Müslümanlarının Osmanlı Devleti üzerinden yaptıkları hac ziyaretleri ve kendilerine yapılan yardımlarla ilgili nadir bilgiler yer almaktadır. Bunların yanı sıra Birinci Dünya Savaşı bittikten sonra Türkistan'a getirilen Türk subayları ve onların yaşantılarıyla ilgili belgeler de bulunmaktadır.

XX. yüzyılın başlarında Doğu dünyasında ulusal egemenlik ve hürriyet için artan mücadelelerde Özbek ve Türk Cedidci aydınların yeri de son derece önemlidir. Cedidciler ülkede yeni usulde okullar açıp bunları yaygınlaştırarak, yetenekli gençleri gelişmiş ülkelere eğitime göndererek, çeşitli maarif dernekleri ve tiyatro toplulukları oluşturarak, gazete ve dergiler yayımlayarak milletin sosyo-politik bilincini yükseltmek suretiyle vatanın bağımsızlığını kazanmak istiyorlardı. Bu amaçla öncelikle yenilikçi ve açık fikirli, geniş dünya görüşüne sahip, kabiliyetli gençleri eğitim amacıyla yurt dışındaki tanınmış eğitim kurumlarında okutmaya özen göstermişlerdir.

Söz gelimi 12 Mayıs 1909 tarihinde Taşkent'te kurulan "Cemiyet-i Hayriye" teşkilatı ve daha sonra 18 Temmuz

dargohlarida o‘qitishga alohida urg‘u berganlar. Jumladan, 1909-yil 12-mayda Toshkentda tuzilgan “Jamiyati xayriya” tashkiloti, keyinchalik 18-iyulda Buxoro shahrida tashkil etilgan “Tarbiyai atfol” jamiyati yoshlarni chet davlatlarda ta’lim olishiga rahnamolik qilgan. Talabalar Istanbuldagi dorilfununlarga yuborilgan. Ular u yerlardagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni ko‘rganlar, yurtga qaytgach, turg‘un hayot, og‘ir iqtisodiy ahvolni o‘zgartirish va umuman yangi hayot boshlashni maqsad qilganlar.

1911-yili birgina Buxorodan chet elga yuborilgan talabalar soni 15 taga, 1912-yili esa 30 taga oshgan. Ularning orasida Abdurauf Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Ato Xo‘ja, Mazhar Burhonov, G‘ozi Olim Yunusov, Xolid Sa’id, Eson Musayev, Mustafo Cho‘qayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov kabi jadid namoyondalari bo‘lgan. Kelgusida O‘zbekiston va Turkiya davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida o‘zbek va turk jadidlarining o‘zaro ma’rifiy va ma’naviy hamkorligini aks ettiruvchi hujjatlar to‘plamini ham nashr etish maqsadga muvofiq.

O‘ylaymizki, dastlabki hamkorlik mevasi bo‘lgan ushbu arxiv hujjatlari to‘plami O‘zbekiston va Turkiya davlatlar tarixini tadqiq etish va yoritishda yangi bosqichni ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur kitob keng qamrovli tadqiqotchilar, olimlar, talabalar va tarix bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga o‘tmishning yangi sahifasini kashf etishga zamin yaratadi.

Shu o‘rinda, Turkiya va O‘zbekiston arxivlarida mujassamlashgan arxiv hujjatlarini aniqlash va mazkur kitobni nashrga tayyorlashda ishtirok etgan mualliflar jamoasiga, Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari bosh boshqarmasi ma’muriyatiga o‘z minnatdorligimni izhor etaman. Ikki davlat xalqini ushbu nashr bilan muborakbod etaman.

Ulug‘bek YUSUPOV

“O‘zarxiv” agentligi direktori

1909'da Buhara şehrinde oluşturulan "Terbiye-i Etfal" derneği gençlerin yurt dışında okumalarına destek sağlamış ve öğrenciler İstanbul'daki Darülfünun'a gönderilmiştir. Bu öğrenciler oradaki siyasi ve ekonomik değişiklikleri görmüşler ve döndüklerinde istikrarlı bir hayat sürmeyi, zor ekonomik durumu değiştirmeyi ve yepyeni bir hayata başlamayı hedeflemişlerdir.

1911 yılında sadece Buhara'dan yurt dışına gönderilmiş öğrenci sayısı 15'e, 1912 yılında ise 30'a yükselmiştir. Bunların arasında Cedidcilerin, Abdurauf Fıtrat, Osmanhoca Polathoca oğlu, Ata Hoca, Mazhar Burhanov, Gazi Alim Yunusov, Halid Seid, Esan Musayev, Mustafa Çokayev, Ubeydullah Hocayev, Taşpolatbek Narbotabekov gibi temsilcileri bulunmaktadır. Bu itibarla ileride Özbekistan ve Türkiye Devlet arşivlerinde bulunan belgelere dayanarak Özbek ve Türk Cedidcilerinin maarif ve maneviyat alanında karşılıklı olarak yaptıkları iş birliklerini yansıtan bir belgeler derlemesi hazırlayıp yayımlamak çok isabetli olacaktır.

Kanaatimizce, yapılmış olan iş birliğinin ilk meyvesi sayılan işbu arşiv belgeleri derlemesi Özbekistan ve Türkiye tarihini inceleme ve araştırma konusunda yeni mesafeler katedilmesine hizmet edecektir. Zira söz konusu kitap tarihle ilgilenen çok sayıda araştırmacı, bilim insanı, öğrenci ve kitap okuyucularına geçmişte yeni bir sayfa keşfetme fırsatı sunmaktadır.

Bu vesile ile Türkiye ve Özbekistan arşivlerinde bulunan konuyla ilgili arşiv belgelerini tespit etme ve bu kitabı hazırlama çalışmasına katılan yazarlar ekibine ve Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı Devlet Arşivleri Başkanlığına şükranlarımı sunar, her iki ülke halkını bu yayından dolayı kutlarım.

Uluğ Bey YUSUPOV

Özbekistan Arşiv Ajansı Başkanı

İçindekiler



Mundarija




Hive'de İslam Hoca Minaresi / Islom Xo'ja minorasi, Xiva

KISALTMALAR


BOA	Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı Devlet Arşivleri Başkanlığı Osmanlı Arşivi
BCA	Türkiye Cumhuriyeti Cumhurbaşkanlığı Devlet Arşivleri Başkanlığı Cumhuriyet Arşivi
O'zMA	Özbekistan Millî Arşivi
A.DVN.MHM	Sadâret, Mühimme Evrakı
A.DVN.NMH	Sadâret, Nâme-i Hümâyun Evrakı
A.DVNS.MHM.d	Bâb-ı Âsafî, Divân-ı Hümâyun Sicilleri Mühimme Defterleri
A.DVNS.NMH.d	Bâb-ı Âsafî, Divân-ı Hümâyun Sicilleri Nâme-i Hümâyun Defterleri
A.MKT	Sadâret, Mektubî Evrakı
A.MKT.MHM	Sadâret, Mektubî Mühimme Kalemi
a.s.	aleyhisselam
AE.SABH.I	Ali Emirî, Sultan Abdülhamid I
AE.SAMD.III	Ali Emirî, Sultan Ahmed III
AE.SMMD.IV	Ali Emirî, Sultan Mehmed IV
BEO	Bâbıâli Evrak Odası Evrakı
bk.	bakınız
C.	Cilt
C.BLD	Cevdet, Belediye
C.HR	Cevdet, Hariciye
C.ML	Cevdet, Maliye
DH.EUM.ECB	Dâhiliye Nezareti, Emniyet-i Umumiye Müdüriyeti Ecanib Kalemi
DİA	Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi
EV.BRT	Evkaf, Berat
HAT	Hatt-ı Hümâyun
haz.	hazırlayan/hazırlayanlar
HH.İ	Hazine-i Hassa, İrâdeler
hk.	hüküm
HR.SYS	Hariciye Nezareti, Siyasi Kalemi
HR.TO	Hariciye Nezareti, Tercüme Odası
Hz.	Hazreti
İBB AK	İstanbul Büyükşehir Belediyesi Atatürk Kitaplığı
İ.DH	İrâde, Dâhiliye
İ.HR	İrâde, Hariciye

İ.MMS	İrâde, Meclis-i Mahsûs
İ.TAL	İrâde,Taltifat
İE.HR	İbnülemin Hariciye
İÜ NEK	İstanbul Üniversitesi Nadir Eserler Kütüphanesi
MF.MKT	Maârif Nezareti, Mektubî Kalemi
MV	Meclis-i Vükela Mazbataları
MVL	Meclis-i Vâlâ Evrakı
no.	numara
ö.	ölümü
r.a.	radıyallâhu anh
S.	Sayı
s.	sayfa
s.a.v.	sallallâhu aleyhi ve sellem
s.d.	saltanat dönemi
St.	Saint
ŞD	Şûrâ-yı Devlet
TR	Türkiye
TS.MA.d	Topkapı Sarayı Müzesi Arşivi Defterleri
TS.MA.e	Topkapı Sarayı Müzesi Arşivi Evrakı
TŞH.EŞ	Teşhirlik Eşya
tt.	tahminî tarih
UZ	Özbekistan
v.	sayfa
vs.	vesaire
Y.A.HUS	Yıldız, Sadâret Hususi
Y.EE	Yıldız, Esas Evrakı
Y.MTV	Yıldız, Mütenevvi Maruzât Evrakı
Y.PRK.ASK	Yıldız, Perakende, Askerî Maruzâtı
Y.PRK.AZJ	Yıldız, Perakende, Arzuhâl ve Jurnaller
Y.PRK.BŞK	Yıldız, Perakende, Başkitâbet Dairesi Evrakı
Y.PRK.MŞ	Yıldız, Perakende, Meşihat Dairesi Maruzâtı
yay. haz.	yayına hazırlayan

QISQARTMALAR

BOA	Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari direksiyasi Usmoniylar arxivi
BCA	Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari direksiyasi Respublika arxivi
O'zMA	O'zbekiston milliy arxivi
A.DVN. MHM	Boshvazirlik, Mühimma hujjatlari
A.DVN.NMH	Boshvazirlik, nomai humoyun hujjatlari
A.DVNS.MHM.d	Oliy dargoh, Devoni humoyun sijillari mühimma daftarlari
A.DVNS.NMH.d	Oliy dargoh, Devoni humoyun sijillari nomayi humoyun daftarlari
A.MKT	Boshvazirlik, yozishma ishlari hujjatlari
A.MKT.MHM	Boshvazirlik, yozishma ishlari Muhim hujjatlari
a.s.	Alayhissalom
AE.SABH.I	Ali Amiriy, Abdulhamid I
AE.SAMD.III	Ali Amiriy, Ahmad III
AE.SMMD.IV	Ali Amiriy, Mehmed IV
BEO	Bobi Oliy hujjatlar bo'limi
C.	Jild
C.BLD	Javdat, Shahar
C.HR	Javdat, Tashqi
C.ML	Javdat, Moliya
DH.EUM.ECB	Ichki ishlar vazirligi, Xavfsizlik bosh boshqarmasi kotibiyati
DİA	Turkiya Diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasi
EV.BRT	Avqof, barotlar
HAT	Podishoh buyrug'i
haz.	tayyorlovchi/tayyorlanganlar
HH.İ	Xos xazina, Buyruqlar
hk.	hukmlar
HR.SYS	Tashqi ishlar vazirligi, siyosiy kotibiyat
HR.TO	Tashqi ishlar vazirligi, Tarjima bo'limi
Hz.	Hazrati
İBB AK	Istanbul shahar hokimligi Otaturk kutubxonasi
İ.DH	Buyruq, Ichki
İ.HR	Buyruq, Tashqi
İ.MMS	Buyruq, Majlisi Maxsus
İ.TAL	Buyruq, Tuhfalar

İE.HR	Ibnulamin Tashqi ishlar
İÜ NEK	Istanbul universiteti Nodir asarlar kutubxonasi
MF.MKT	Maorif vazirligi, kotibiyat mudirligi
MV	Bosh vazir raisligidagi vazirlardan tashkil topgan Usmonli hukumati Oliy kengashi rasmiy hujjatlari.
MVL	Islohotlarni rejalashtirish va ijrosini nazorat qiluvchi oliy qonun chiqaruvchi va sud organi hujjatlari
no.	Raqam
ö.	Vafoti
Qr.	Qarang
r.a.	Roziyallohu anhu
S.	Son
s.	Bet
s.a.v.	Sollallohu alayhi vasallam
s.d.	Saltanat davri
Sh.	Shahar
St.	Aziz
ŞD	Sho'royi davlat
TR	Turkiya
TS.MA.d	To'pqopi saroyi muzeyi arxiv daftarlari
TS.MA.e	To'pqopi saroyi muzeyi arxiv hujjatlari
TŞH.EŞ	Ko'rgazma buyumlari
tt	Taxminiy sana
UZ	O'zbekiston
v.	Varaq
v.b.	va boshqalar
Y.A.HUS	Yulduz, Boshvazirlik xususiy
Y.EE	Yulduz, Asosiy hujjatlar
Y.MTV	Yulduz, Turli arzlar hujjatlari
Y.PRK.ASK	Yulduz, Alohida yig'ma jild, Harbiy arzlar
Y.PRK.AZJ	Yulduz, Alohida yig'ma jild, Arzihol va qayd daftarlari
Y.PRK.BŞK	Yulduz, Alohida yig'ma jild, Bosh kotibiyat idorasi hujjatlari
Y.PRK.MŞ	Yulduz, Alohida yig'ma jild, Shayxulislom idorasiga doir arzlar
yay. haz.	Nashrga tayyorlovchi



Belgeler



Hujjatlar



ملو

مکه دن کلن حکیمک عرضیدر

معروض رأی عالم آرایه مخفی اولمیه که مولانا نفیس الدین که طبیب پادشاه
مرحوم میرزا الوغ بکوک ایمش کتاب شرح اسبابنی انوک رسمی
ایله تصنیف ایلمش وجمیع حکمایه اعتراض ایلمش وحضرت خداوندکارک
یمن همتی ایله حضرت باری عز اسمه بو فقیره تحفه کر بو پادشاه عالم پناهک
طبیبدر اشبو اعتراضلروکه دفعیچون توفیق اندی اشبو جلده اثری
شرح اسبابه بر حاشیه یازلدی که مشتملدر دقایق وحقایق حکمیانه
ودخی علاجات مجربه غریبه بر نوعیله که مقبول طبع فضلا وعلمادر موجوددر که
منظور نظر سلطان عالیشان اوله وبو بنده درگاه عالم پناهک
سعادت قبولنه سبب اوله ان شاء الله تعالی

MEKKE'DEN GELEN BİR HEKİM'İN, MİRZA ULUĞ BEY'İN TABİBİ MEVLANA NEFÎSÜDDİN TARAFINDAN KALEME ALINAN TIP KİTABINA KENDİSİNİN BİR HAŞİYE YAZDIĞINI BELİRTEREK PADİŞAH'IN HUZURUNA KABULÜNÜ İSTEDİĞİ ARZ YAZISI



1449[1]

O Allah

Mekke'den gelen Hekim'in arzıdır.

Arz olunur ki

Merhum Padişah Mirza Uluğ Bey'in tabibi olan Mevlana Nefîsüddin *Şerh-i Esbâb* kitabını onun ismi ile yazmış ve bütün hekimlere itiraz eylemiş.

İsmi yüce Allah, Hükümdar hazretlerinin himmeti bereketiyle âlemin sığınağı Padişah'ın tabibi olan bu fakir ve zayıf kulu söz konusu itirazların defedilmesine muvaffak kıldı. Bu sebepten ötürü *Şerh-i Esbâb*'a bilimsel incelik ve hakikatler ile alim ve fazıl kişilerin tabiatlarının makbulü olan birtakım tecrübe edilmiş ve hayret verici ilaçları kapsayan bir haşiye yazıldı.

Umulur ki şanı yüce Sultan tarafından görülüp incelenir ve bu bendenin onun huzuruna kabul edilmesine sebep olur, inşallah.

1 Tarih tahminîdir. Belge üzerinde tarih bulunmadığından, belgede geçen Mirza Uluğ Bey'in vefat tarihi (bk. Yavuz Unat, "Uluğ Bey", *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (DİA)*, C. XLII, s. 127-129, İstanbul 2012) esas alınmıştır.

MAKKADAN KELGAN BIR HAKIMNING MIRZO ULUG'BEK TABIBI MAVLONO NAFISUDDIN TOMONIDAN YOZILGAN TIB KITOBIGA O'Z SHARHINI YOZGANLIGINI BILDIRGAN HOLDA PODSHOH QABULIGA KIRISH ISTAGINI BAYON QILGAN TALABNOMASI

1449-yil[1]

Yo, Alloh

Makkadan kelgan Hakimning bildirgisi

Arzim shuki

Marhum podshoh Mirzo Ulug'bekning tabibi Mavlono Nafisuddin *"Sharhi asbob"* kitobini uning ismi bilan yozibdi va barcha hakimlarga e'tiroz bildiribdi.

Nomi buyuk Alloh, hukmdor hazratlarining himmati va barakotidan olampanoh podshohning tabibi bo'lgan bu faqir va ojiz quli tilga olingan e'tirozlarni bartaraf qilishga muvaffaq bo'ldi. Shu sababli *"Sharhi asbob"*ga ilmiy nafosat va haqiqatlar ila yondashib, olim va fozil kishilarning tabiatlariga maqbul bo'lgan qator tajribalarga suyangan holda hayratlanarli dorivorlarni o'zida jamlagan bir sharh kitobi yozildi.

Umid qilamanki, shoni ulug' Sulton tomonidan ko'rib chiqiladi va bu (risola) kaminaning uning huzuriga qabul qilinishiga sabab bo'ladi, insholloh.

1 Sana taxminiy. Hujjat ustida sana bo'lmaganligi bois, hujjatda nomi qayd etilgan Mirzo Ulug'bekning vafot etgan sanasi (qr. Yavuz Unat, "Uluğ Bey", *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (DİA)*, C. XLII, s. 127-129, İstanbul – 2012) asos qilib olindi.

بوندن اول مربادشاهیله محفوظ اولان بدیع الزمان اوغلی محمد صالح کندو احوالن تقریر ایدوب شیله بیان اتدی که بن بدیع
الزمانک صلبندن اوغلیم اول زمانکه اتام بدیع الزمان هراة شهرینده کچه باشدن صنوب استراباده کلدی و والدم که خواجه مظفر
بدیعنک قیزیدر بو فقیر اول خاتوندن طوغدم صکره بابام بدیع الزمان دیار هنده دوشدی اوچ ییل مقداری کزدی بعده شاه اسمعیل یانه
تبریزه کلدی اکی ییل مقداری دردی صکره سلطان سلیم خان تبریزه کلدکده مذکور بابام بدیع الزمانی استانبوله کتوردی بر ییلدن
صکره بو کمینه و قرنداشم محمد الزمان که بالفعل دیار بیجانه کردن حاکمدر شاه اسمعیل ایله کلدک شاه اسمعیل دیاربکرجی بزه
ویروب انده واردوق ایکی ییل مقداری انده دردق بعده کچه باشدن بربک کم کستن قرمده مکله مشهوردر کلوب بلخی
بزدن الدی اندن منهزم اولوب قندهاره واردق با برخان کم بابام ایله عمو اوغلنلویدر انک یاننه واردق منبور
با برخان بزی خوش دوتوب قرنداشمه کندو قیزن ویردی و بو کمینه یه قندهار قربنده لقمان دمکله مشهوردر سنجاق
ویردی هندی فتح ایلدی منبور قرنداشم محمد الزمانه بیجانه کرد سنجاغنی وردی سکز ییل مقداری ساکن اولدوق
منبور بابرخان فوت اولوب اوچ اوغلی قالدی بری همایون بری کامران بری عسکری مذکور قرنداشم بابرخان اوغلانلرنه
اطاعت ایتمیوب بابرخانک اکی اوغلی همایون ایله کامران قرنداشم اوزرینه واردلر و عسکری نام بر اوغلی بنم اوزرمه کلوب
کمینه دخی منهزم اولوب بعده هزاره و نوکدر دمکله مشهور بر طایفه بو فقیره معاونت ایدوب عسکرینک اوزرینه واروب
بر غالب اولوب عسکری قاچوب اون کون مقداری قندهار کویلرینی تاراج ایلدک اندن خراسانه کلدک سام که شاه
اسمعیل اوغلیدر اکی ییل مقداری مهرداری اولدم صکره قندهاردن بو فقیری استمکه کلدیلر حسین خان شاملو که
سامک لالسیدر بو فقیری اله ویرمدی اندن بغداده کلدم ترک علایق ایدوب واروب مکه شریفه معظمه ده
مجاور اولم اول چینده بغدادده حاکمی شرف الدین اوغلی محمد خان بو کمینه یه مانع اولوب قیو ویرمدی اول اثناده دولتلو
پادشاه حضرتلری تبریزدن بغداده کلوب مذکور محمد خان بو فقیری بیله الوب بصره یولندن قوم و کشانه ایلندی صکره دولتلو
پادشاه حضرتلری بغداددن تبریزه کلدکلرنده بو کمینه بر جماعت تجار ایله دیاربکره کلدم اندن قیصریه یه کلدم اندن انقره یه
وبعده بورسیه و استانبوله کلدم محمود پاشا کاربان سراینده اکی ای مقداری ساکن اولدم صکره قنبر علی نام بر قولوم
مذکور کاربان سراینده بر مقفل حجره [illegible] قیوب سنوبه کچیب اندن کفه یه واروب اوچ ای مقداری کفه ده دوردم
صکره مکه نیتنه کفه دن کلوب انطالیه یه اندن علائیه یه کلوب انده اوچ ییل مقداری دردم بو مدت ایچنده
بر کره طرح بولسه و بر دفعه فیرنز اطاسنه کچدم الملک بر مقدار دنیا قالمشدی بو مالی الله یولنه خرج اتدم بو جهله
تقاعد اختیار ایدوب ساکن اولور کن انطالیه سنجاغی بکی طوپغون بک امر موجبنجه تفتیش ایدوب وقوعی اوزره دولتنه
عرض ایدوب صکره ایاس بک دخی امر ایله تفتیش ایدوب کلیبولیه بیله کتوروب بوغازحصاری قلعه سنده حبس اولنمق امری
حالیا امر شریف ایله استان سعادت ترابنه کلندی

2

GELİBOLU'DA BOĞAZ HİSARI'NA HAPSEDİLMİŞ OLAN BEDİÜZZAMAN OĞLU MUHAMMED SALİH İSİMLİ ŞAHSIN; BÂBÜR ŞAH VE ŞAH İSMAİL İLE İLİŞKİSİ, BABASININ SULTAN I. SELİM TARAFINDAN TEBRİZ'DEN İSTANBUL'A GÖTÜRÜLMESİ, KENDİSİNİN İSTANBUL VE ANTALYA'YA GELİŞİ VS. HUSUSLARDAKİ SÖZLÜ BEYANLARINA DAİR YAZI

1499 – 1539[1]

Bundan önce Padişah emriyle gözetim altında tutulan Bedîüzzaman oğlu Muhammed Salih kendi ahvalini sözlü olarak şu şekilde beyan etmiştir:

"Ben Bedîüzzaman'ın öz oğluyum. Bir zamanlar atam Bedîüzzaman Herat şehrinde Keçebaş'tan yılgınlığa düşüp Esterabad'a geldi. Annem, Hâce Muzaffer Bedekçi'nin kızıdır. Ben o hatundan doğdum. Sonra babam Bedîüzzaman Hint diyarına gitti. Üç yıl kadar orada gezdi. Daha sonra Şah İsmail'in yanına Tebriz'e geldi. İki yıl kadar orada durdu. Sonra Sultan Selim Han Tebriz'e geldiğinde babam Bedîüzzaman'ı İstanbul'a götürdü. Bir yıl geçtikten sonra ben ve hâlen Bicanekerd Hâkimi olan kardeşim Muhammedü'z-zaman, birlikte Şah İsmail'e geldik. Şah İsmail Belh diyarını bize verdi. Oraya varıp iki yıl kadar durduk. Daha sonra Keçebaş'tan Kesten Kara diye bilinen bir bey gelip Belh'i bizden aldı. Oradan yenilgiye uğrayıp Kandehar'a gittik. Babamın amca oğlu olan Bâbür Han'ın yanına vardık. Bâbür Han bizi hoş tutup kardeşime kendi kızını verdi; bana da Kandehar yakınlarındaki Lokman diye bilinen sancağı verdi. Hind'i fetheyledi. Adı geçen kardeşim Muhammedü'z-zamân'a Bicanekerd sancağını verdi. Sekiz yıl orada sakin olduk. Bâbür Han öldü ve geride üç oğlu kaldı. Biri Hümâyûn, biri Kâmrân, biri de Askerî. Adı geçen kardeşim, Bâbür Han'ın oğullarına

1 Belge üzerinde tarih bulunmadığından, tarih tahminîdir. Belgede anlatılan olayların Safevî Devleti'nin kuruluşunun hemen öncesinde başlayıp Kanuni Sultan Süleyman'ın Irakeyn Seferi ve sonrasındaki döneme kadar devam ettiği değerlendirilerek ve belgede belirtilen süreler de dikkate alınıp belgenin tarihi olarak 1499 - 1539 tarih aralığı esas alınmıştır. Daha geniş bilgi için bk. Tufan Gündüz, "Şah İsmâil", *DİA*, C. XXXVIII, s. 253-255, İstanbul 2010; Mustafa Çetin Varlık, "Çaldıran Savaşı", *DİA*, C. VIII, s. 193-195, İstanbul 1993; Enver Konukçu, "Bâbür" *DİA*, C. IV, s. 395-396, İstanbul 1991; Feridun Emecen, "Selim I" *DİA*, C. XXXVI, s. 407-414, İstanbul 2009; Feridun Emecen, "Irakeyn Seferi" *DİA*, C. XIX, s. 116-117, İstanbul 1999; Bekir Kütükoğlu, "Ayas Paşa" *DİA*, C. IV, s. 202-203, İstanbul 1991.

GALIBULUDA BO'G'OZ HISORIGA ZINDONBAND QILINGAN BADIUZZAMON O'G'LI MUHAMMAD SOLIH ISMLI SHAXSNING BOBURSHOH VA SHOH ISMOIL BILAN ALOQASI, OTASINING SULTON SALIM I TOMONIDAN TABRIZDAN ISTANBULGA OLIB KETILISHI, O'ZINING ISTANBUL VA ANTALIYAGA KELISHI VA SHU XUSUSDAGI OG'ZAKI BAYONOTIGA DOIR XAT

1499 – 1539-yil[1]

Avvalroq podshoh amri bilan nazorat ostida ushlab turilgan Badiuzzamon o'g'li Muhammad Solih o'z ahvolini og'zaki tarzda quyidagicha bayon qilgan:

"Men Badiuzzamonning o'g'liman. Bir paytlar otam Badiuzzamon Xirot shahrida Kachaboshdan ko'ngli qolib, Astraobodga kelgan edi. Onam Xo'ja Muzaffar Badaqchining qizidir. Men undan dunyoga kelganman. Otam Badiuzzamon Hind diyoriga jo'nab ketib, uch-yilcha o'sha yerlarda yurdi. Keyinroq Shoh Ismoilning yoniga – Tabrizga keldi. Ikki yil chamasi u yerda bo'ldi. Sulton Salimxon Tabrizga kelganlarida, otam Badiuzzamonni Istanbulga olib ketdi. Bir yil o'tgach, men va hamon Bijanagard hokimi bo'lib turgan ukam Muhammaduzzamon bilan birga Shoh Ismoil yoniga bordik. Shoh Ismoil Balx diyorini bizga berdi. U yerda ikki yilcha bo'ldik. Keyinroq Kachaboshdan Kastan Qora degan bek kelib, bizdan Balxni olib qo'ydi. Biz mag'lubiyatga uchrab, Qandaxorga jo'nadik. Otam amakisining o'g'li bo'lgan Boburxonning huzuriga bordik. Boburxon bizni yaxshi ko'rib, ukamni qiziga uylantirdi; menga esa Qandaxor yaqinidagi Luqmon deb atalgan sanjoqni berdi. Hindni fath qildi. Ukam Muhammaduzzamonga Bijanagard sanjog'ini berdi. Sakkiz yil u yerda halovat topdik. So'ng Boburxon vafot etdi. Uning uch o'g'li qoldi – biri Humoyun, biri – Kamron, biri esa Askariy. Ukam Boburxonning o'g'illariga

1 Hujjat ustida sana bo'lmaganligi bois, ko'rsatilgan sana taxminiydir. Hujjatda bayon qilingan hodisalar Safaviylar davlatining tashkil topishidan biroz ilgari boshlanib, Qonuniy Sulton Sulaymonning iroqayn yurishi va undan keyingi davrlarga qadar davom etganligi hamda hujjatda ma'lum qilingan muddatlar inobatga olinib, hujjat yozilgan-yil sifatida 1499 – 1539-yillar oralig'i asos qilib olindi. Batafsilroq ma'lumot uchun qr. Tufan Gündüz, "Şah İsmâil", *DİA*, C. XXXVIII, s. 253-255, İstanbul 2010; Mustafa Çetin Varlık, "Çaldıran Savaşı", *DİA*, C. VIII, s. 193-195, İstanbul 1993; Enver Konukçu, "Bâbür" *DİA*, C. IV, s. 395-396, İstanbul 1991; Feridun Emecen, "Selim I" *DİA*, C. XXXVI, s. 407-414, İstanbul 2009; Feridun Emecen, "Irakeyn Seferi" *DİA*, C. XIX, s. 116-117, İstanbul 1999; Bekir Kütükoğlu, "Ayas Paşa" *DİA*, C. IV, s. 202-203, İstanbul 1991.

itaat etmedi. Bunun üzerine Bâbür Han'ın iki oğlu Hümâyûn ile Kâmrân, kardeşimin üzerine yürüdüler; Askerî adlı diğer oğlu da benim üzerime geldi ve ben yenilgiye uğradım. Daha sonra Hazara ve Nugder (Nikuder) adıyla bilinen bir topluluk bana yardım etti. Askerî'nin üzerine yürüdük ve biz galip geldik. Askerî kaçtı ve biz on gün kadar Kandehar köylerini yağmaladık. Oradan Horasan'a geldik. İki yıl Şah İsmail'in oğlu Sam'ın Mühürdarlığını yaptım. Sonra Kandehar'dan beni istemeye geldiler; Sam'ın Lalası olan Hüseyin Hân-ı Şamlu beni ele vermedi. Oradan Bağdad'a geldim. İstedim ki, her şeyden alakamı kesip Mekke-i Şerîfe'ye giderek Peygamber'in komşusu (mücavir) olayım. Ancak o zaman Bağdad Hâkimi olan Şerefüddin oğlu Muhammed Han bana engel oldu, bırakmadı. O sırada devletli Padişah hazretleri Tebriz'den Bağdad'a geldi. Adı geçen Muhammed Han beni yanına alıp Basra yolundan Kum ve Kaşan'a ulaştırdı. Daha sonra devletli Padişah hazretleri Bağdad'dan Tebriz'e geldiklerinde ben de bir tüccar topluluğuyla Diyarbakır'a geldim. Oradan Kayseri'ye geçtim. Oradan Ankara'ya ve daha sonra Bursa'ya ve İstanbul'a geldim. Mahmudpaşa Kervansarayı'nda iki ay kaldım. Sonra Kanber Ali isimli bir kölemi anılan kervansarayda kilitli bir odaya koyup kendim Sinop'a geçtim. Oradan Kefe'ye gittim ve üç ay Kefe'de durdum. Sonra Mekke'ye gitme niyetiyle Kefe'den ayrılarak Antalya'ya, oradan da Alâiye'ye geldim ve orada üç yıl kaldım. Bu sürede bir kez Trablus'a, bir defa da Kıbrıs Adası'na geçtim. Elimde bir miktar dinar kalmıştı. Bu malı Allah yolunda harcadım. Bu şekilde işten, güçten el çekip bir kenarda oturmayı seçmiş iken Antalya Sancağı Beyi Toygun Bey, ferman gereğince beni teftiş edip durumu Devlet merkezine arz etti. Daha sonra da Ayas Bey ferman gereğince teftiş etti ve birlikte Gelibolu'ya götürdü. Boğazhisarı Kalesi'nde hapsedilmem emrolundu ve yine emirle İstanbul'a gelindi."

itoat qilmadi. Natijada Humoyun bilan Kamron ukamning ustiga qo'shin tortdi; Askariy esa mening ustimga qo'shin tortdi va men mag'lub bo'ldim. Keyinroq Hazora va Nugdar (Nikudar) nomli qabilalar menga yordam berdi. Askariyning ustiga qo'shin tortdik va biz g'olib bo'ldik. Askariy qochdi, biz o'n kuncha Qandahor qishloqlarini taladik. U yerdan Xurosonga o'tdik. Keyinchalik ikki-yil Shoh Ismoilning o'g'li Somga muhrdorlik qildim. Ammo Qandahordan meni talab qilib keldilar; Somning otalig'i hisoblangan Husaynxoni Shomlu meni tutib bermadi. U yerdan Bog'dodga keldim. Istadimki, hamma narsaga qo'l siltab, Makkayi Sharifga borsam, Payg'ambarimiz (s.a.v)ga qo'shni bo'lsam. Biroq o'sha paytlardagi Bog'dod hokimi Sharafiddin o'g'li Muhammadxon menga to'sqinlik qildi, ruxsat bermadi. O'sha oraliqda davlatmand podshoh hazratlari Tabrizdan Bog'dodga keldilar. Nomi zikr qilingan Muhammadxon meni yoniga olib, Basra yo'lidan Qum va Koshonga olib borib qo'ydi. Keyinroq davlatmand podshoh hazratlari Bog'doddan Tabrizga kelganlarida men ham savdogarlar bilan birga Diyorbakirga keldim. U yerdan Kayseriga o'tib, Anqara, undan Bursa va keyin Istanbulga keldim. Mahmudposho karvonsaroyida ikki oy qoldim. Qanbar Ali ismli qulimni ushbu karvonsaroyning qulflanadigan bir xonasida qoldirib, o'zim Sinopga o'tdim. U yerdan Kafaga jo'nadim va uch oy Kafada yashadim. Keyin Makkaga ketish niyatida Kafadan chiqib, Antaliyaga, u yerdan esa Alayiyaga keldim va u yerda uch yil qoldim. Bu muddat ichida bir marta Trablus, bir marta esa Qibris orolida bo'ldim. Qo'limda biroz dinor qolgan edi. Bu pullarni Alloh yo'lida sarfladim. Shu tarzda ishdan, amaldan qo'l siltab, bir chekkada yashashni ixtiyor etganimda, Antaliya sanjog'ining beyi Toyg'un bey farmon asosida meni taftish qilib, holatni Davlat markaziga bayon qildi. Keyin esa Ayas bey farmon asosida tashtish qildi va o'zi bilan birga Galiboluga olib ketdi. Bo'g'ozhisori qal'asiga zindonband qilinishimga buyruq berildi va yana amr asosida Istanbulga olib kelishdi."





Timurlu Devleti'nin Horasan'da Hüküm Süren Son Hükümdarı Bediüzzaman Mirza'nın İstanbul Eyüpsultan'daki Mezarı
Temuriylar davlatining Xurosondagi oxirgi hukmdori Badiuzzamon Mirzoning Istanbul Ayyubsultondagi qabri.

خطای جانبندن بورسیه اوچ کشی کلدی اکیسی خطایدن بری هریدن اشبو مسطور اولان
خبرلر بونلردن شایع اولدی

بوروندق خان که ترکستان بکیدر و یونس خان اوغلی سلطان منصور که مغول خاندر
ایشتمشلر که قزلباش امام اعظم رحمة الله علیه حضرتنک کموکلرینی حقارب
یاقمش بو ذکر اولان ایکی خان لشکر جمع ایدب و شایبک خانه ایلچی کوندرب
ایتمشلر که قزلباشک حقندن کل بز دخی سکا لشکر ویرەلم یوق دیرسک
بزه یول ویر وارالم بز انک حقندن کلەلوم دیمشلر شایبک خانک اوغلی
تیمور خان که سمرقند بکیدر بو خبردن حیله اکلیوب بزم مملکتمزی آلمق استرلر
دیو تهور ایدوب واروب بوروندق خان ایله سواش ایدوب بوروندق خان تیمور خانی صیمش
تیمور خان قاچب سمرقنده کلمش شایبک خان تیمور خانک بوروندق خان ایله سواشن
ایشدیجک نیچون جنک ایتدوک دیو طوتوب حبس ایلیوب اولدرمک استمش
بوروندق خان بو قضیەیی ایشدیجک ایلچی کوندرب دلک ایدوب تیمور خانی
قورترمش

بعده تدبیر ایلمشلر که شایبک خان سمرقند جانبنه متوجه اولا تا که قزلباش خراسان ولایتنی
خالی بولوب کله بو خانلر دخی اتفاقله قزلباشک اوزرینه هجوم ایلیەلر بو اتفاق اوزره
شایبک خان سمرقند جانبنه متوجه اولمش میرزا عمر شیخ اوغلی بابور میرزا که
کابل بکیدر خراسان ولایتی خالی قلدی دیو قزلباشه خبر کوندرر قزلباش دخی
خراسان ولایتنه متوجه اولب شعبان آینده مشهد شهرنه وارمش ینه شعبان آینده
قزلباشن خراسانه واردی دیو تبریزدن خبر کلمش

بعده فغفور خطای که طایی خاندر کندو اختیاریله مسلمان اولوب سمرقند ایله خطاینک
ما بیننده اولان کافولی که قلیماقدر فتح ایلمش و بو خطای خانینک
مسلمان اولدوغی خبری سمرقندده حد تواتره یتشمش

3

HITAY TARAFLARINDAN GELEN ÜÇ KİŞİNİN BURUNDUK HAN, ŞAYBEK HAN, İMÂM-I ÂZAM, KIZILBAŞ, HORASAN, HITAY HAKANI'NIN MÜSLÜMAN OLMASI VS. HAKKINDA VERDİKLERİ HABERLERE DAİR YAZI

1508 – 1 Aralık 1510[1]

Hıtay[2] tarafından Bursa'ya üç kişi geldi. İkisi Hıtay'dan biri Heri'den. İşbu yazılı olan haberler bunlardan yayıldı.

Türkistan Beyi Burunduk Han ve Moğol Hanı Yunus Han oğlu Sultan Mansur işitmişler ki; Kızılbaş, İmâm-ı Âzam –*Allah'ın rahmeti onun üzerine olsun*– hazretlerinin kemiklerini çıkarıp yakmış. Bunun üzerine bu iki Han asker toplamış ve Şaybek (Şeybânî) Han'a elçi gönderip demişler ki; *"Kızılbaş'ın hakkından gel. Biz de sana asker verelim. Yok dersen, bize yol ver; gidip biz onun hakkından gelelim."*

Şaybek Han'ın oğlu olan Semerkand Beyi Timur Han bu haberden hile sezip; *"Bizim memlekemizi hile ile almak isterler."* diye öfkelenerek varıp Burunduk Han'la savaşmış. Burunduk Han, Timur Han'ı yenmiş. Timur Han kaçıp Semerkand'a gelmiş. Şaybek Han, Timur Han'ın Burunduk Han'la savaşını duyunca; *"Niçin savaştın?"* diye tutup hapseyleyip öldürmek istemiş. Burunduk Han bu meseleyi duyunca elçi gönderip affı için aracı olmuş ve Timur Han'ı kurtarmış.

Daha sonra şöyle bir çareye başvurmuşlar: Şaybek Han Semerkand taraflarına yönelecek; Kızılbaş da Horasan vilayeti boş kaldı diye gelecek; bu hanlar da ittifakla Kızılbaş'ın üzerine hücum edecekler.

Şaybek Han bu anlaşma üzerine Semerkand tarafına yönelmiş. Kâbil Beyi olan Mirza Ömer Şeyh oğlu Bâbür Mirza; *"Horasan vilayeti boş kaldı."* diye Kızılbaş'a haber

1 Hıtay veya Hıtâ, Sarı Nehir ile Çin Seddi arasındaki bölgenin adı olup merkezi Pekin idi. Hoten, Turfan'ın güneybatı eyaleti durumundaydı ve İslam kaynaklarında bütün Kuzey Çin ve Doğu Türkistan'ı içine alacak şekilde kullanılıyordu. Çin veya Mâçin ise (Sanskritçe Maha-Çin: Büyük Çin) Çin'in geri kalan kesimini ifade ediyordu. Bk. Ahmet Taşağıl, "Hıtâynâme", *DİA*, C. XVII, s. 404-405, İstanbul 1998.

XITOY TOMONLARDAN KELGAN UCH KISHINING BURUNDUQXON, SHAYBEKXON, IMOMI A'ZAM, QIZILBOSH, XUROSON, XITOY XOQONINING MUSULMON BO'LGANI VA BOSHQA XUSUSDA BERGAN XABARLARIGA DOIR XAT

1508 – 1-dekabr 1510-yil[1]

Xitoy[2] tomondan Bursaga uch kishi keldi. Ikkisi Xitoydan, biri Xaridan. Ushbu yozib olingan xabarlar ulardan yoyildi.

Turkiston begi Burunduqxon va mo'g'il xoni Yunusxon o'g'li Sulton Mansur eshitibdilarki: Qizilbosh va Imomi A'zam – *Alloh uni rahmat qilgan bo'lsin* – hazratlarining suyaklarini chiqartirib, yoqqanmish. Buni bilgach, Burunduqxon va Sulton Mansur qo'shin to'plabdi va Shaybek (Shayboniy) xonga elchi yuborib, debdilarki; *"Qizilboshni biryoqlik qil. Biz ham senga qo'shin beraylik. Rad etadigan bo'lsang, bizga yo'l ber: borib o'zimiz uning ishini bitiraylik."*

Shaybekxonning o'g'li Samarqand begi Temurxon bu xabarlarni hiyla deb bilib, *"Bizning yurtni hiyla bilan olishmoqchi"* deb g'azablanganicha Burunduqxon bilan jangga kirishibdi. Burunduqxon Temurxonni yengibdi. Temurxon qochib, Samarqandga kelibdi. Shaybekxon

1 Sana taxminiy. Hujjatda bayon qilingan hodisalar Bog'dod va keyinchalik Xurosonning Safaviy (Qizilbosh) hukmdori Shoh Ismoil Safaviy tomonidan bosib olinganligi va Shaybek (Shayboniy)xonning vafoti davrida ro'y berganligi inobatga olinib, hujjatning sanasi sifatida 1508 – 1 dekabr 1510-yil oralig'i asos qilib olindi. Yana ham batafsil ma'lumot uchun qr. İsmail Türkoğlu, "Şeybânî Han", *DİA*, C. XXXIX, s. 43-45, İstanbul 2010; Tufan Gündüz, "Şah İsmâil", *DİA*, C. XXXVIII, s. 253-255, İstanbul 2010; Abdülazîz ed-Dûrî, "Bağdat", *DİA*, C. IV, s. 425-433, İstanbul 1991; Osman Çetin, "Horasan", *DİA*, C. XVIII, s. 234-241, İstanbul 1998; Mustafa Öz, "Meşhed", *DİA*, C. XXIX, s. 362-363, Ankara 2004.

2 Xitoy yoki Xito Sariq daryo va Chin devori orasidagi hududning nomi bo'lib, markazi Pekin edi. Xo'tan, Turfanning janubiy-sharqi provinsiyasi maqomida edi va Islom manbalarida butun Shimoliy Chin va Sharqiy Turkistonni o'z tarkibiga olgan holda qo'llanar edi. Chin yoki Mochin (sanskritcha Maha-Chin: Buyuk Chin) Chinning qolgan qismini ifodalab kelardi. Qr: Ahmet Taşağıl, "Hıtâynâme", *DİA*, C. XVII, s. 404-405, İstanbul 1998.

göndermiş. Kızılbaş da Horasan vilayetine yönelmiş ve Şaban ayında Meşhed şehrine varmış. Yine Şaban ayında; "*Kızılbaş Horasan'a vardı.*" diye Tebriz'den haber gelmiş.

Daha sonra, Hıtay Hakanı (Fağfûr-ı Hıtay) Taymi Han kendi isteğiyle Müslüman olup Semerkand'la Hıtay'ın arasında olan Kalimak kâfirlerini fetheylemiş. Hıtay Hanı'nın Müslüman olduğu haberi Semerkand'da ağızdan ağıza yayılarak tevatür derecesine ulaşmış.

Temurxonning Burunduqxon bilan qilgan jangini eshitib, uni qo‘lga olibdi-da, *“Nega jang qilding?”* deya o‘g‘lini o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Burunduqxon bu xabarni eshitgach, elchi yuborib, kechirilishi uchun vositachi bo‘libdi va Temurxonni qutqaribdi.

Keyin shunday bir to‘xtamga kelishibdi: Shaybekxon Samarqand tomonlarga yurish qiladi; Qizilbosh esa “Xuroson viloyati bo‘sh qoldi” deb bu yerga keladi, natijada esa xonlar ittifoqlik bilan Qizilboshning ustiga hujum qiladilar.

Shaybekxon ushbu kelishuvga binoan Samarqand tomonga yurish qilibdi. Qobul begi Mirzo Umarshayx o‘g‘li Bobur Mirzo “*Xuroson viloyati bo‘sh qoldi*” deb Qizilboshga xabar yuboribdi. Qizilbosh ham Xuroson viloyatiga yurish qilibdi va sha’bon oyida Mashhad shahriga kirib boribdi. Yana sha’bon oyida “*Qizilbosh Xurosonga yetib bordi*” deb Tabrizdan xabar kelibdi.

Keyinroq Xitoy xoqoni (Fag‘furi Xitoy) Taymixon o‘z xohishi bilan musulmon bo‘lib, Samarqand va Xitoy orasida o‘rnashgan qalmoq kofirlarini fath qilibdi. Xitoy xonining musulmonlikni qabul qilgani haqidagi xabar Samarqandda og‘izdan-og‘izga o‘tib, rosa ovoza bo‘libdi.





Bursa Ulu Cami / Bursa Ulug' Jome masjidi
http://www.bursa.gov.tr/ulucami#gallery-11

BOA, A.DVNS.MHM.d, 7, hk. no. 671

TR

BUHARA, SEMERKAND VE MAVERAÜNNEHİRLİ HACILARIN KIRIM ÜZERİNDEN GÜVENLİ BİR ŞEKİLDE ÜLKELERİNE DÖNMELERİNİN SAĞLANMASINA DAİR EMİR



BUXORO, SAMARQAND VA MOVAROUNNAHRLIK HOJILARNING QRIM ORQALI MAMLAKATLARIGA XAVF-XATARSIZ QAYTISHLARINI TA'MINLASH TO'G'RISIDAGI BUYRUQ

8 Ocak 1568

Haleb Beylerbeyi'ne emir

Geçen sene hac vazifelerini ifa ettikten sonra dönüp Haleb'e gelen Semerkand, Buhara ve Maveraünnehirli bazı hacıların, doğu tarafından memleketlerine gitmeye yol emniyeti bulunmadığından, yüce eşiğimize gelen Mir Seyyid Ahmed isimli reisleri vasıtasıyla Kefe tarafından gitmek için yardım istemeleri üzerine, tarafımızdan Kırım Hanı'na ferman gönderilerek bu hacıların Ejderhan üzerinden memleketlerine gidebilmeleri için güvenli bir şekilde sınıra ulaştırılmaları emrolunmuştur. **Buyurdum ki:**

Bu husustaki yardımımı kendilerine bildiresin ve tembih edesin ki; İstanbul, Samsun, Sinop veya diledikleri diğer iskelelerden Kefe tarafına geçip Kırım Hanı ile görüşsünler ve Kırım Hanı da emrimin gereği olarak kendilerini salimen sınıra ulaştırsın.

8-yanvar 1568-yil

Halab Beklarbegiga buyruq

O'tgan yili haj vazifalarini ado etib, Halabga Samarqand, Buxoro va Movarounnahrdan kelgan ba'zi hojilar, sharqiy tomondan mamlakatlariga qaytib ketishlari uchun yo'l xavfsiz bo'lmaganligi sababli, tabarruk ostonamizga kelgan Mir Sayyid Ahmad ismli boshliqlari vositasida Kefe orqali ketish uchun yordam so'ragan. Bu borada tomonimizdan Qrim xoniga farmon yuborilib, mazkur hojilarning Ajdarxon orqali o'z mamlakatlariga xavf-xatarsiz yetib olishlari uchun chegaraga qadar kuzatib qo'yilishi buyurilgan. **Buyuramanki:**

Bu masalada yordam berishimni ularga xabar qilib, ogohlantirki, Istanbul, Samsun, Sinop yoki istalgan boshqa bandargohlar orqali Kefe tomonga o'tib, Qrim xoni bilan uchrashsinlar va Qrim xoni ham buyrug'imga binoan ularni chegaraga qadar sog'-salomat kuzatib qo'ysin.



BOA, A.DVNS.MHM.d, 7, hk. no. 748

TR

5

BUHARALI ŞEYH AHMED YESEVÎ'NİN SOYUNDAN GELEN VE HACCA GİDECEK OLAN ŞEYH ZENGÎ VE DERVİŞLERİNİN SAĞ SALİM ŞAM'A ULAŞTIRILMASINA DAİR EMİR

22 Ocak 1568

[İstanbul'dan] Şam'a varıncaya kadar yol üzerinde bulunan [kazaların] kadılarına emir

Buharalı Şeyh Ahmed Yesevî'nin soyundan gelen ve bu fermanı elinde bulunduran Şeyh Zengî, yanındaki dervişleriyle birlikte Allah'ın Evi'ni (Kâbe'yi) tavaf ve yaratılmışların efendisi olan Hz. Peygamber'in (s.a.v.) Türbesi'ni ziyaret etmeye niyetlenmiş ve bu esnada kimsenin yollarda ve konak yerlerinde kendilerine karışıp sataşmaması için eline bir ferman verilmesini istemiştir. **Buyurdum ki:**

Adı geçen Şeyh ve dervişleri ile yanlarındaki eşya ve gereçlerine hukuk ve kanuna aykırı olarak kimsenin müdahale etmesine ve sataşmasına izin vermeyesiniz; kendi paralarıyla yiyecek ihtiyaçlarını temin ettiresiniz ve gerekli olan yerlerde yanlarına kılavuz vererek emniyetli bir şekilde Şam'a ulaşmalarını sağlayasınız.

BUXOROLIK SHAYX AHMAD YASSAVIY NASLIDAN BO'LMISH VA HAJ SAFARIGA OTLANGAN SHAYX ZANGIY HAMDA DARVESHLARINING SHOMGA SOG'-SALOMAT YETKAZILISHLARIGA DOIR BUYRUQ

22-yanvar 1568-yil

[Istanbuldan] Shomga borgunga qadar yo'l bo'yidagi [nohiyalarning] qozilariga buyruq

Buxorolik Shayh Ahmad Yassaviy naslidan bo'lgan va qo'lida ushbu farmonni tutgan Shayh Zangiy hamda uning hamrohligidagi darveshlar Allohning uyi (Ka'bani) tavof qilish va yaratilganlarning eng afzali Hazrat Payg'ambar (s.a.v)ning maqbaralarini ziyorat qilishga niyat qilibdilar. Shu maqsadda biror-bir kishining yo'l davomida va qo'nalg'alarda ularga noqulaylik tug'dirmasligi uchun qo'llariga bir farmon berilishi istalgan. **Buyuramanki:**

Shayx, uning hamrohligidagi darveshlar va ularga tegishli jihoz, mol-mulklariga biror kishining qonunga xilof ravishda daxl qilishiga hamda noqulaylik tug'dirishiga yo'l qo'yilmaydi. O'z pullariga oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirasiz va kerakli joylarda yonlariga yo'l ko'rsatuvchi berib, Shomga qadar xavfsiz bir shaklda yetib borishlarini ta'minlaysiz.



٩٨٤

استحقاقنه كوره بيوم الحالده وظيفه تعيين اولنمشدر عنى ايله اولبر خاقان عظام و سلاطين ذوالاحترامك استدعا و التماسى
حيز قبولده . و بيع اولنمق عادت مالوفه سلاطين حشمت قرين اولمغين هواطف سعادت مظاهرلرى ايكون
بو نامى موسى ايلهمك اكرم ... قبيله لرى ذكر سائر احوال منظور نظر مرحمت اثرمز واقع اولمقده حايه اولنمز

صورت نامهٔ تاتار خان

٢٧٢٢

استانهٔ مخلد الدوليه سعادت مدار و عتبهٔ مشيد الاجلال و خطيب و تاتارك ملاذ خواقين ذوى الاقتدار و معاذ
خاقانه عظمت الاعتبار حضرتلرى بناء اعلى حضرت آيه سمرقند و بخارا جانبلرنده فقلوها حيات هالدلرى عنوان دولتلرى
خوارزم خانى حاجى محمد خانك نامهٔ خالصت شجوه ديصاريت رهنمونلرى وارد اولدقده بلاد عجم ملكلويارندن
دالديق ازبرهاه تيغ اولنوب اول جانبده طوافن بيت الله الحرام و زيارت تربهٔ منورهٔ حضرت سيد المرسلين
عليه افضل الصلوات والسلام نيته زيبن ايلياه حجاج ذوى الابتهاج و سائر تجار صنايع نتامه يولى اصلوب فقلور يالى
و فراغنا الله مرور و عبور ايتدكلرى خصوص اشعار اولنمش ايدى دلايل قرانه واثر ... اولدقده نوغاى
البته ايدى حالا كفار خاكسار الله كيرمكمن ... اولدى واكثر اطراف فيد ... تاتار ... كيم دارلر
ونه ... ديسيا اولده ... بتفصيل و شرح معلوم اولنوب اول ولايتك نيجه اولمسى ... اولمقين
بغ ... عنايت حضرت ملك القدير ايله اول جانبك نيجه تسخيرى خصوص ... مظاهر ... ماكبر اولنمشدر
ايله اولسه ... قدعده دركا ... بار كاهمز اولوره صدارتده ... ايتدكلرى ... و بلكه
اولدقده ... دكيا ... تسخيرى ... اولنوب اول بابده ... جهل
حسن تدبير ... ايله كوز ... ايرز ... التقصيب ... ايالتلرى كوريلوب
بقايه ... نتايج نيجه تسخيرى ميسر اولوب

TR BOA, A.DVNS.MHM.d, 7, hk. no. 2722

HAREZM HANI HACI MUHAMMED HAN'IN, SEMERKAND VE BUHARA TARAFLARINDAN GELEN HACILARIN VE TACİRLERİN YOL EMNİYETİ İÇİN EJDERHAN'IN FETHEDİLMESİ GEREKTİĞİNE DAİR MEKTUBU ÜZERİNE TATAR (KIRIM) HANI'NA YAZILAN NÂME-İ HÜMÂYUN



XORAZM XONI HOJI MUHAMMADXONNING SAMARQAND VA BUXORO TOMONLARIDAN KELGAN HOJILAR HAMDA TIJORATCHILARNING YO‘L XAVFSIZLIGI UCHUN AJDARXONNING[1] FATH ETILISHI KERAKLIGIGA DOIR TATAR (QRIM) XONIGA YOZILGAN NOMAI HUMOYUN[2]

8 Şubat 1568[1]

Tatar Hanı'na yazılan nâmenin suretidir.

Hakanların ve hanların sığınağı olan yüce eşiğimize Semerkand ve Buhara taraflarından, bilhassa Harezm Vilayeti Hanı Hacı Muhammed Han'dan gelmiş olan samimi ve sadıkane nâmede; *"Ejderhan vilayetinin fethedilerek o taraflardan Allah'ın Evi'ni (Kâbe'yi) tavaf ve Hz. Peygamber'in (s.a.v.) Türbesi'ni ziyaret etmeye niyet etmiş olan hacılara ve tüccarlara yol açılmak suretiyle bunların huzur ve emniyet içerisinde seyahat etmeleri"* hususu bildirilmiş.

İmdi; Kazan ve Ejderhan vilayetlerinin, önceden Nogayların elinde iken niçin şimdilerde küffarın eline geçtiği, içinde ve çevresinde Tatar mirzalarından kimlerin kaldığı, ne zaman ve ne sebeple elden çıktığı ayrıntılı olarak malumum olup bu vilayetin fethedilmesi önemli olduğundan burasının fethi hususu Padişah olarak benim de aklımda yer etmiştir.

Şu durumda; siz de yüce dergâhımıza olan bağlılık ve sadakatinizin, yüksek anlayış ve zekânızın gereği olarak anılan vilayetin fethi hususu ile bizzat ilgilenesiniz ve bu konuda ne şekilde hareket edilmesi gerektiğini ayrıntılı olarak bildiresiniz ki, vaktiyle gerekli hazırlıklar yapılıp Allah'ın izni ile fetih gerçekleşsin.

1 Tarih tahminîdir. Bu nâme-i hümâyunun kayıtlı olduğu *7 Numaralı Mühimme Defteri*'nin sonundaki *nâme-i hümâyun* formasının baş tarafında tarih yazılı olmadığından, bu konuyla ilgili olarak, aynı defterde 829 numarada kayıtlı Harezm Hanı'nın adamı için verilen yol hükmü ile 838 numarada kayıtlı Kefe Beyi'ne sefer hazırlığı hakkında çıkarılan hükmün baş tarafında bulunan 9 Şaban 975 = 8 Şubat 1568 başlık tarihi esas alınmıştır.

8-fevral 1568-yil[3]

Tatar xoniga yozilgan maktubning nusxasi

Xoqonlar va xonlarning panohgohi bo‘lgan muborak ostonamizga Samarqand va Buxoro tomonlardan, xususan, Xorazm viloyati xoni Hoji Muhammadxondan kelgan samimiy va ishonchli maktubda: *“Ajdarxon viloyati fath etilib, u yerdan Allohning uyini (Ka’bani) tavof qilish va Hazrat Payg‘ambar (s.a.v)ning maqbaralarini ziyorat etish uchun niyat qilgan hojilarga hamda tijoratchilarga yo‘l ochish orqali ularning tinchlik va xavfsizlikda sayohat qilishlari ta’minlanishini”* ma’lum qilgan.

Qozon va Ajdarxon viloyatlari avval no‘g‘aylar qo‘lida ekan, nega endi kofirlar qo‘liga o‘tgani, ushbu shaharlarning ichida va atrofida tatar mirzolaridan kimlarning qolgani, qachon va nima sababdan qo‘ldan ketgani bo‘yicha batafsil ma’lumotim bor. Bu viloyatning fath etilishi muhimligi sababli, uning fathi borasidagi fikr Podshoh o‘laroq, mening ham aqlimda.

Ushbu holatda siz ham oliy dargohimizga bo‘lgan bog‘liqligingiz, sadoqatingiz va aql-idrokingizga bo‘lgan zarurat o‘laroq, mazkur viloyatning fathi bilan shaxsan shug‘ullaningiz va bu borada qanday harakat qilish kerakligini batafsil ma’lum qilingizki, o‘z vaqtida kerakli hozirliklar ko‘rilib, Allohning izni bilan fath amalga oshsin.

1 Astraxan.

2 Podishohning rasmiy maktubi.

3 Sana taxminiy bo‘lib, ushbu nomai humoyun qayd etilgan *№7 Muhimma daftari*ning oxiridagi *nomai humoyunning* bosh qismida sana yozilmagani uchun, ushbu mavzu bo‘yicha mazkur daftarda 829 raqami ostida qayd etilgan Xorazm xonining odami uchun berilgan yo‘l hukmi bilan 838 raqamdagi Kefe begining safar hozirliklari haqida chiqarilgan buyruqning yuqori qismidagi 9-sha’bon 975-yil – 8 fevral 1568-yil sanasi asos qilib olingan.

